

AKBAROV BAXTIYOR

CHOLG'U IJROCHILIGI VA ANSAMBL FANIDAN

o'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROV BAXTIYOR

CHOLG'U IJROCHILIGI VA ANSAMBL FANIDAN

o'quv qo'llanma

*(O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi
pedagogika sohasi musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan)*

TOSHKENT

"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU

2023

Taqrizchilar:

*Muqimiy nomli Qo'qon Davlat Pedagogika instituti
San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'lim kafedrası
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent: G'.M. Najmetinov
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist: A.J. Asqarov*

**B.Akbarov. Cholg'u ijrochiligi va ansambl / O'quv qo'llanma. -
"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, Toshkent - 2023, 132 bet.**

O'quv qo'llanma "Cholg'u ijrochiligi va ansambl" fanining bir necha boblarini o'z ichiga olgan bo'lib, unda umumta'lim maktablarida "Musiqa madaniyati" darsining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari, o'qitish metodlari, davlat ta'lim standarti qo'ygan talablar, darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish yo'llari va sinflar bo'yicha dars ishlanmalaridan na'munalar taqdim etilgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu fan yuzasidan avval chop etilgan qo'llanmalardagi manbalardan farqli o'laroq ushbu kitobda talaba-yoshlarning darsga erkin yondoshishi uchun qiziqarli va qulay usullardan foydalanilgan. O'quv qo'llanmada taqdim qilingan cholg'u ijrochiligi bo'yicha berilgan ma'lumotlar, asar notalari va dars ishlanmalari albatta shunday bo'lishi kerakligi chuqur o'rganilgan, shu bilan birga har bir fanda ham o'zgarishlar va yangiliklar bo'lishi tabiiy. Shularni hisobga olib, musiqa o'qituvchisi o'z ustida tinmay ishlashi va izlanishi, o'z fani uchun yangiliklar yaratib, uni darslari jarayonida qo'llasa maqsadli bo'ladi. O'quv qo'llanma OTM Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari va maktab musiqa fani o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Учебник содержит несколько разделов предмета «Инструментальное исполнение и ансамбль», который включает цели и задачи урока «Музыкальная культура» в общеобразовательных школах, методику преподавания, требования государственного образовательного стандарта, способы организации уроков на основе новых педагогических технологий и примеры планов уроков на занятиях. Следует отметить, что, в отличие от источников в предыдущих учебниках по этому предмету, в этой книге используются интересные и удобные для учащихся методы, позволяющие свободно подойти к уроку. Информация о музыкальном исполнении, нотах и планах уроков, представленная в учебнике, глубоко изучена, и в каждом предмете есть изменения и нововведения лishinatural. Имея это в виду, учителю музыки целесообразно работать и исследовать себя, создавать новшества для своего предмета и использовать их на уроках Учебное направление музыкального образования предназначено для студентов и школьных учителей музыки.


The textbook contains several chapters on the subject "Instrumental Performance and Ensemble", which includes the goals and objectives of the course "Music Culture" in secondary schools, teaching methods, requirements of the state educational standard, ways of organizing lessons on the basis of new pedagogical technologies and examples of lesson plans for classes. It should be noted that, unlike the sources in previous textbooks on this subject, this book uses interesting and convenient methods for students to approach the lesson freely. The information provided in the textbook on instrumental performance, the notes of the work and the coursework must be studied in depth, as well as the changes and innovations in each subject lishi natural. With this in mind, it is expedient for a music teacher to work and research on himself, to create innovations for his subject and to use them in the lessons. Textbook Direction of Music Education intended for students and school music teachers.

Namangan davlat universiteti kengashining _____ 2022 yildagi _____ sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xuzuridagi Muvofiqlashtiruvchi Kengash muhokamasiga tavsiya qilingan.

ISBN: 978-9910-756-48-1

© B.Akbarov., 2023

© "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOT" NMIU, 2023



KIRISH

**“Madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”
Sh.Mirziyoyev.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-122 sonli qarorida “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ta’lim sohasida musiqa va san’atga kata e’tibor qaratdi. Ushbu qarorda musiqaga oid quyidagi qarorlar qabul qilindi:

a) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

mazkur qarorda 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan **milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko‘nikmalari** o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkaziladi;

mazkur qarorga 1-ilovadagi ro‘yxatda keltirilgan milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish **musiqa fani o‘qituvchilari uchun** majburiy hisoblanadi;

musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida **“Hayotimga hamrohdir cholg‘u”** shiori ostida cholg‘u iljrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yiladi;

notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta’minlash umumta’lim maktablarini darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash tizimiga kiritiladi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san’at rivojiga, ijod ahliga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor misolida ham ko‘rish mumkin. So‘nggi ikki yilda mazkur sohaga taalluqli 20 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan sa’y-harakatlar olib borilyapti. Prezidentimizning joriy yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va marosimlariga alohida e'tibor berilishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi boy, o'ziga xos ko'p qatlam va seruslub musiqa me'rosiga egadir. O'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni, ma'naviy badiiy merosimizni atroflicha o'rganish va undan bahramand bo'lish har birimizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Xalqimiz istiqloлга erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni atroflicha o'rganish imkoniyati vujudga keldi.

Xalqimiz kuy va qo'shiqlarini o'rganish jarayoni, ko'p asrlik qadriyatlarimizning qayta tiklanishi muammosi yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma mazmun mundarejasi o'zbekmusiqasining xalq ijodiyoti, xalq cholg'u asboblari, musiqa namunalarini, o'zbek milliy musiqa san'atiga hissa qo'shgan bastakorlar hayot va ijod yo'lini qamrab oladi. Bunda xalq tomonidan yaratilgan kuy, ularning yaratilish tarixi, nisbatan murakkab janrlar va ko'p asrlar davomida rivojlanib kelayotgan o'zbek musiqa madaniyatiga va xalq cholg'ulariga muxtasar murojaat qilishga harakat qilindi.

O'quvchilarda milliy kuylarni idroklash, xalq musiqa janrlarining tuzilishi va ijro etilishi bilan birga nazariy va amaliy ko'nikma hosil etish maqsadida mashg'ulotlarning bir necha turlari: jumladan, faol va noan'anaviy shakllari tavsiya etiladi.

Qo'llanmadagi aksariyat asarlar akademik Yunus Rajabiy tomonidan o'zbek xalq musiqasi "1V" to'plamlarida nashr etilgan va yana bir qator asarlar esa tuzuvchi tomonidan rubob sozida ijro etish uchun moslashtirilgan. Shuningdek to'plamda D.Zokirov, M.Mirzayev, R.Qosimov kabi taniqli san'atkor va ijrochilarning bu boradagi ayrim diqqatga sazovor tajribalari ham o'z aksini topdi. To'plashga kiritilgan musiqiy asarlar janri va turi jihatlaridan turlichadir. Ularni majmua bo'ylab taqsimlashda "oddiydan murakkabgacha" tamoiliga asoslanildi. Shu bilan asoslangan qo'llanma mazmunida diyorimizning turli vohalariga mansub musiqiy an'alarni ham aks ettirishga intildik. Maqsadimiz o'quvchilarda "bosqichma bosqich yo'lida" asosida serjilo o'zbek milliy na'volarini teran

idroklash va xalq cholg'ularida malakali ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Majmuadagi asarlarni shartli ravishda uch qismga bo'lish mumkin:

1) xalq musiqasi namunalari "Yallama yorim", "Norim norim" va boshqalar.

2) yirik shakldagi cholg'u kuy namunalari "Rajabiy", "Tanovor", "Mirzadavlat" va boshqalar.

3) maqom yo'llariga doir cholg'u kuy namunalari "Segoh", "Nasri segoh", "Tasnifi navo", "Nasrulloi" va boshqalar.

O'quv qo'llanmaning ilova qismida yillar davomida yaratilgan kuylarning notalaridan amaliy foydalanish uchun namunalar keltirilgan. O'quv jarayonining dastlabki davrida, birinchi qismga kirgan namunalardan foydalanish, keyingi bosqichlarda esa ikkinchi va uchinchi qismlarga murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Asarlarni o'rganish jarayonida doira usullarini aniq his etishga erishish hamda ijro bezaklari masalan, nola, qochirim, qo'shish va boshqalarni alohida o'rganish asosida zaruriy malakalarni shakllantirish lozim. Shu bilan birga o'quvchilarga nafaqat texnik imkoniyatlarni balki milliy kuy va ayniqsa maqomlarni chuqur idrok ettirish ham nihoyatda muhim hisoblanadi.

Musiqiy tovushlar bilan tanishuv

Musiqada 7 ta asosiy tovushlar bo'lib, ular – "do, re, mi, fa, sol, la, si" deb nomlanadi. Biror birlardani bosganimizda jaranglaydigan tovush ushbu pardaning nomini belgilaydi, ya'ni ushbu pardaham xuddi tovush kabi «do», «sol» va hokazo deb nomlanadi.

Musiqada tovushlarni yozishda beshta chiziqdan foydalaniladi, ular «*nota yo'li*» deb nomlanadi. Chiziqlar pastdan tepaga qarab sanalib, undagi doira (dumaloq) shaklida yozilgan belgilar nota deb ataladi.




Musiqada yettita nota bo'lib, ular nota yo'lining 5 ta chiziqda joylashadi va quyidagicha yoziladi:




DO RE MI FA SOL LYA SI

Musiqiy kalitlar

Musiqada musiqiy kalit maxsus belgi bo'lib, u nota chiziqlarining biriga qo'yiladi, hamda muayyan balandlikdagi tovushlarni o'rnini aniqlaydi. Kalit nota yo'lining boshiga qo'yiladi. Har bir notaning nomi - nota yo'lining boshida turgan kalitga qarab belgilanadi.




Bu **skripka kaliti** - uning aylanasi ikkinchi chiziqdan yoziladi va nota yo'lida sol tovushini ochganligi sababli **sol kaliti** yoki **skripka kaliti** deyiladi.



Bu **bas kaliti** kaliti - uning aylanasi to'rtinchi chiziqdan yoziladi va nota yo'lida fa tovushini ochganligi sababli **fa kaliti** yoki **bas kaliti** deyiladi.

Notalarning cho'zimi



Butun nota 4i ga sanaladi

Yarim nota 2i ga sanaladi

Chorak nota 1i ga sanaladi

Nimchorak nota 1 yoki i ga sanaladi

Takt va takt chizig'i

Siz biladigan she'rlardagi kabi musiqada ham kuchli, ya'ni urg'uli tovushlar bo'ladi. Nota yo'lida yozilgan ana shu urg'uli tovushlar oralig'idagi kuy bo'lagi - **takt** debataladi.

Nota yozuvida taktlarvertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziq- **takt chizig'i** deyiladi.

Taktlar ikki, uch, to'rt chorakka teng bo'lgan turli cho'zimdagi notalardan tuzilishi mumkin. Takt o'lchovini ko'rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so'ng yoziladi. Tepadagi raqam bo'laklar sonini, pastdagi raqam esa shu bo'laklar cho'zimini anglatadi.



Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'lib, bunga **to'liqsiz takt** yoki - **takt oldi** deyiladi. To'liqsiz takt ko'pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.

Pauzalar

Qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushlarning to'xtashi yoki tanaffus qilinishi zarur bo'lsa, maxsus musiqiy belgilardan foydalaniladi.

Bunday belgilar - **pauza** deb ataladi. Nota cho'zimlari har xil bo'lganidek pauzalar ham turlicho'zimda bo'ladi. Ulār nota cho'zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o'n oltitalik, o'ttiz ikkitalik kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, ijro etilmay, balki ushbu cho'zimida sanaladi.

Butun pauza



Butun pauza to'rtinchi chiziqning ostida yoziladi va butun nota cho'zimida dam oladi.

Yarimtalik pauza



Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi va yarimtalik nota cho'zimida dam oladi.

Choraktalik pauza







DO RE MI FA SOL LYA SI

Musiqiy kalitlar

Musiqada musiqiy kalit maxsus belgi bo'lib, u nota chiziqlarining biriga qo'yiladi, hamda muayyan balandlikdagi tovushlarni o'rnini aniqlaydi. Kalit nota yo'lining boshiga qo'yiladi. Har bir notaning nomi - nota yo'lining boshida turgan kalitga qarab belgilanadi.




Bu **skripka kaliti** - uning aylanasi ikkinchi chiziqdan yoziladi va nota yo'lida sol tovushini ochganligi sababli **sol kaliti** yoki **skripka kaliti** deyiladi.



Bu **bas kaliti** kaliti - uning aylanasi to'rtinchi chiziqdan yoziladi va nota yo'lida fa tovushini ochganligi sababli **fa kaliti** yoki **bas kaliti** deyiladi.

Notalarning cho'zimi



Butun nota 4i ga sanaladi

Yarim nota 2i ga sanaladi

Chorak nota 1i ga sanaladi

Nimchorak nota 1 yoki i ga sanaladi

Takt va takt chizig'i

Siz biladigan she'rlardagi kabi musiqada ham kuchli, ya'ni urg'uli tovushlar bo'ladi. Nota yo'lida yozilgan ana shu urg'uli tovushlar oralig'idagi kuy bo'lagi - **takt** debataladi.

Nota yozuvida taktlarvertikal chiziq bilan ajratiladi. Bu vertikal chiziq- **takt chizig'i** deyiladi.

Taktlar ikki, uch, to'rt chorakka teng bo'lgan turli cho'zimdagi notalardan tuzilishi mumkin. Takt o'lchovini ko'rsatuvchi raqamlar esa kalitdan so'ng yoziladi. Tepadagi raqam bo'laklar sonini, pastdagi raqam esa shu bo'laklar cho'zimini anglatadi.



Agar musiqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshida to'liq bo'lmagan takt hosil bo'lib, bunga **to'liqsiz takt** yoki - **takt oldi** deyiladi. To'liqsiz takt ko'pchilik hollarda umumiy taktning yarmidan oshmaydi.

Pauzalar

Qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushlarning to'xtashi yoki tanaffus qilinishi zarur bo'lsa, maxsus musiqiy belgilardanfoydalaniladi.

Bunday belgilar - **pauza** deb ataladi. Nota cho'zimlari har xil bo'lganidek pauzalar ham turlicho'zimda bo'ladi. Ular nota cho'zimlari singari butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik, o'n oltitalik, o'ttiz ikkitalik kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, ijro etilmay, balki ushbu cho'zimida sanaladi.

Butun pauza




Butun pauza to'rtinchi chiziqning ostida yoziladi va butun nota cho'zimida dam oladi.

Yarimtalik pauza




Yarimtalik pauza uchinchi chiziqning ustida joylashadi va yarimtalik nota cho'zimida dam oladi.

Choraktalik pauza




Choraktalik pauza choraktalik nota cho'zimida dam oladi.

Sakkiztalik pauza



Sakkiztalik pauza sakkiztalik nota cho'zimida dam oladi.

O'n oltitalik pauza



O'n oltitalik pauza o'n oltitalik nota cho'zimida dam oladi.

Musiqaning ifoda vositalari

Ritm (usul) – musiqiy tovushlarni muayyan vaqt davomida kelishiga aytamiz.

Metr (vazn) – ritmning o'lchov vositasiga kiradi. U bir xil cho'zimdagi muayyan ritmikbo'laklarning to'xtovsiz takrorlanishidir.

Ohang (melodiya) – kuyning eng kichik ifodali bo'lagi bo'lib, bir necha ketma-ket olingantovushlardan hosil bo'ladi.

Temp (sur'at)

Musiqasi asarining ijro etilish sur'atiga - *temp* deb ataladi. Templar asosan uch xil ko'rinishda bo'ladi: oir templar, o'rtacha templar va tez templar.

Og'ir templar

Largo (largo) - juda vazmin, juda cho'zib

Lento (lento) - vazmin, cho'zib

Adagio (adagio) – og'ir

Grave (grave) - juda og'ir

O'rtacha templar

Andante (andante) - shoshilmasdan, o'rtacha og'ir

Moderato (moderato) - o'rtacha tez

Sostenuto (sostenuto) - salobatli

Allegretto (allegretto) - jonlanib

Tez templar

Allegro (allegro) - tez

Vivo (vivo) - jonli, chaqqon

Vivace (vivache) - jadal

Presto (presto) - tez, oshiqib

Prestissimo (prestissimo) - juda tez.

Dinamik belgilar

Musika asarini ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obraz ta'sirini boyitib, tinglovchilarga eshittirish, tovushni qanday kengaytirilishini ko'rsatish uchun musiqada maxsus belgilar qo'llaniladi. Bu belgilar nomlari italyanchadan olingan bo'lib, ular ***dinamik belgilar*** deb ataladi. Dinamikbelgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi:

p (*piano*) – mayin, kuchsiz, oxista;

pp (*pianissimo*) – juda mayin, juda kuchsiz;

mp (*messo piano*) – kuchsizroq (*pianodan* kuchli, *fortedan* kuchsizroq);

f (*forte*) – qattiq, kuchli;

ff (*fortissimo*) – juda qattiq, juda kuchli

mf (*messo forte*) – qattiqroq, kuchliroq


< *cr* (*kreshcendo*) – tovushni tobora kuchaytirib borish

> *dim* (*diminuendo*) – tovushni tobora kuchsizlantirib borish

sf (*sfortando*) – ayrim tovushlarni to'satdan kuchli ijro etish:

Legato — (**liga**) – lotinchada liga – «bolayman» ma'nosini anglatadi, ya'ni tovushlarniuzmasdan ijro qilish:

Agar bir xil balandlikdagi ikki notani birlashtiruvchi liga bilan bog'lansa, ikkinchi tovush chalinmay faqat shu nota davomiyligida sanaladi:



Stakkato – italyanchada *staccato* – «ajratilgan»,

♪ «alohida» ma'nolarini anglatib, tovushlarni qisqa-qisqa, uzib

ijro etiladi. Bunda tovushning tagiga yoki ustiga nuqta qo'yiladi.

 **Fermata** – italyanchada *fermata* – «to'xtash», «to'xtab turish» ma'nolarini bildiradi. Bubelgi biror tovush, pauzaning tagiga yoki ustiga qo'yiladi. Fermata qo'yilgan nota yokipauza asarning xarakteriga qarab, bir yarim va ikki barobariga cho'zib ijro qilinadi.

 > **Akstent** – notani kuchliroq, tovushni ajratib ijro etish belgisi.

 notalarning ustida joylashgan bo'lsa, bir oktavabalandda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

 notalarning tagida joylashgan bo'lsa, bir oktava pastda ijro etish lozimligini bildiruvchi belgi.

-Repriza -qaytarish belgisi

Qo'shiq yoki musiqa asarining biror bo'lagini ikki marta takrorlab ijro etish zarur bo'lsa, qaytarish – **repriza** belgisidan foydalaniladi. U kuy bo'lagini takrorlanishi lozim bo'lgan taktlarining boshiga va oxiriga qo'yiladi:



Volta – butun bir asarni yoki uning muayyan qismini takrorlashda har xil tugashi mumkinligini anglatadi.



Har bir tovush yarim ton va bir ton ko'tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin. Bunday pasayish **alterastiya**, ya'ni o'zgarish belgisi bilan ko'rsatiladi.

- **Diyez** -tovushni yarim ton ko'tarish belgisi.

-**Bemol** - tovushni yarim ton tushirish belgisi.

- **Bekar**- diez yoki bemol kuchini bekor qilish belgisi.
- **Dubl diyez** - notani bir tonga ko'taradi.
- **Dubl bemol** - notani bir tonga tushiradi.

Yuqorida berilgan alteratsiya belgilari:

- 1) notani oldiga qoyilgan bo'lsa u faqat aynan shu vaqtda, shu taktdagi notani o'zgarishi bilan ifodalanadi;
- 2) agar bemol yoki diyez asarning boshida, kalitdan so'ng berilgan bo'lsa, bu belgi o'zgarib butun asar davomida o'z kuchini saqlaydi;
- 3) alteratsiya belgisi notalar nomi belgi nomi bilan qo'shib, birgalikda o'qiladi - "si bemol", "ci bekar" yoki "fa diyez", "fa bekar", va x.k.

ANSAMBL CHOLG'ULARI VA ULARNING UMUMIY TAVSIFI YOG'OCH DAMLI CHOLG'ULAR NAY

Nay qadimiy damli cholg'udir. Darvishali Changiy o'zining musiqiy risolasida nay haqidagi ushbu afsonani keltiradi: Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) me'rojdin so'ng yerga tushganlarida, u yerda ko'rganlari haqida xalifa Aliga gapirib beribdilar. Ammo asosiy narsani Alidan sir tutibdilar. Bu holat Payg'ambarimizni qiynabdi. Shunda osmon sirlarini cho'ldagi quduqqa borib aytish haqida Payg'ambarimizga vahiy kelibdi. Payg'ambarimiz xuddi shunday qilibdilar. Shundan so'ng ushbu quduqdan qamish o'sib chiqibdi. Bir cho'pon qamishni kesib olib, nay yasabdi. Naydan sadolangan ajoyib musiqani eshitib, nafaqat cho'ponning suruvi, balki qushlar va hayvonlar ham yig'ilibdi. Ushbu go'zal afsona o'rta asrlardan bizgacha yetib kelgan ekan, nay sozining qalbga naqadar yaqin ekanligidan dalolat berib, uning qimmatini yuksaklargako'taradi.

Nay ansamblda hamda orkestrda muhim o'rin tutadi. U yog'och damli cholg'ular orasida eng harakatchan va yuksak mahorat talab etuvchi soz. Tovushi baland bo'lgani sababli ansamblda aksariyat holarda boshlovchilik vazifasini bajaradi. Ovoz hajmi jihatidan, asosan, yuqori registrni egallaydi.

Nayda oltita teshikcha bo'lib, ijro vaqtida oltita barmoq ishlatiladi: o'ng qo'ldan uchta va chap qo'ldan uchta. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yoki yarim berkitish, turlicha tezlik va kuch bilan puflash orqali baland-past tovushlar sadolanadi.

Bundan tashqari, nayda yana to'rtta teshik bor. Ular nayga havo yuboriladigan tomonda emas, balki uning boshqa tomonida joylashgan bo'lib, tagidan ikkita teshik. Pastki ikkita teshikning vazifasi: nayni maromiga yetkazib sozlash uchun ishlatiladi. Yuqoridagi bir juft teshikka esa qadimda ustoz sozandalar biron-bir ko'chmunchoq taqib, nayni bezatganlar. Nayning ovoz hajmi juda keng bo'lgani bois, uning ohang diapozonini bir necha registrga bo'lish mumkin. Har bir registrda tovushlarning xarakteri va sifati nisbatan o'zgaradi: birinchi oktavadagi "la" hamda ikkinchi oktava "re" oralig'ida ovoz baxmaldek yumshoq bo'lib, *pp-mf* dinamikasida yangraydi; ikkinchi oktava "mi" hamda uchinchi oktava "re" oralig'ida ovoz nozik va tiniq bo'lib, *pp-f* dinamikasini qo'llash mumkin; uchinchi oktava "mi-si" oralig'ida ovoz aniq va yorqin eshitilib, *mf-ff* dinamikasida yangraydi; nayning eng yuqori tovushlari esa *ff* dinamikasida keskin hushtaksimon eshitiladi.

Nay sozining ijro imkoniyatlari nihoyatda keng. Shu bois ham u ko'p hollarda ansamblda yakkanavoz sifatida qatnashadi. Nay turli xarakterlarni aks ettira olib, ham lirik kuychan, ham harakatchan-vertioz, texnik murakkab partiyalarni to'laqonli ifodalay oladi. Nayning ijro imkoniyatlari: *legato*, *nonlegato*, *stakkato*, *ikki* va *uchmartalistakkato*, *trel* va boshqa melizmlar.



Nay pikkolo

Rekonstruksiya qilingan nay pikkoloni orkestrda *kichiknay* deb ham atashadi. U sozlar ichida eng yuqori registrni egallaydi. Nay pikkolo skripka kalitida notalashtiriladi va yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi. Nay pikkolonning ijro imkoniyatlari nay soziga xosdir.



Surnay

Surnay o'zbek va tojik xalqlarining qadimiy yog'och damli cholg'usi. Surnay yakka holda, shuningdek, nog'ora, karnaylar bilan birga ansamblda ham chalinadi. Surnayda chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshik bor. Yettinchi teshik esa pastki tomonda bo'lib, u chap qo'lning barmog'i bilan berkitiladi. Surnayning ohang hajmi o'rta va yuqori registrlarni egallaydi. Surnayda *stakkato*, *legato* singari ijro usullarini amalga oshirish mumkin. O'zining ijrochilik imkoniyatlari jihatidan yuqori pog'onalariga erishgan sozandalar nafas qaytarish yo'li bilan ohang davomiyligini ta'minlay oladilar. Bu usul ko'proq yakkaxon ijrochilikda qo'llaniladi.



Qo'shnay

Qo'shnay-qadimiy damli cholg'udir. Qadim Sharq mamlakatlarida qo'shaloq naylardan tashkil topgan ikki xil cholg'u mavjud bo'lgan: avlos-"qo'sh surnay" va dunay-fors tilida "ikkita nay" degani. Dunayning ilk tasviri miloddan avvalgi II ming yillikka oid Nishopur tarixiy manbalarida aks etgan. Qo'shnaydan farqli o'laroq, dunayning naylari uzunroq bo'lgan.


Buyuk mutafakkir Abu Nasr Muhammad al-Farobiy (IX-X asr) o'zining musiqiy risolasida qo'shnayga ta'rif berib, uning ikki xili mavjudligi to'g'risida aytib o'tadi. Birinchi turi-puflanish joyida birlashgan ikki nayning pastki qismlari har xil tomonga qaratilgan soz, ikkinchi turi-ikkita nay parallel joylashgan soz. Qadimdan bizgacha yetib kelgan qo'shnay bambukdan tayyorlanadigan bir xil uzunlikdagi bir-biri bilan

bog'liq ikkita naydan tashkil topib, yuqori qismidan puflanadi. Har bir naychanning yuqori qismida bittadan kesilgan tili bo'lib, aynan shu til ovoz chiqarishga xizmat qiladi. Har bir naychada yettitadan teshik bor. Qo'shnayni chalishda chap qo'lning uchta hamda o'ng qo'lning to'rtta barmog'i ishlaydi. Bunda teshiklar barmoqning yumshoq yostiqlashi bilan emas, tekis rostlangan barmoq bilan berkitiladi. Ikkala nayning teshiklari baravariga parallel holatda yopilishi kerak.

Qo'shnayning diapozoni bir oktava oralig'ida bo'lib, tovushqatori diatonik bo'lgan. Qo'shnayning tilini lab yordamida qisqartirish usuli bilan ovoz hajmini bir yarim oktavagacha kengaytirish mumkin edi. Ikkala naycha ham unison tarzida sozlanadi. Bugungi kunga kelib, rekonstruksiya qilingan qo'shnay yanada mukammallashdi. U yarim tonliklar asosida temperatsiyalangan tovushqatorga ega bo'ldi. Ovoz hajmi o'rta registrni egallaydi. Qo'shnayning ovoz hajmi ikki registrga bo'linadi. Birinchi oktava "*re*" dan ikkinchi oktava "*re*" gacha bo'lgan pastki registrda qo'shnayning ovozi ravon yangraydi. Unda *legato* va *stakato* ijro usullarini ifodalash mumkin. Ushbu registrda *pp* dan *ff* gacha bo'lgan dinamika yaxshi aks etadi.

Ikkinchi oktava "*mi*" dan "*sol*" gacha bo'lgan yuqori registrda ovoz keskin yangraydi. Unda faqat stakkato usulini qo'llash mumkin. Negaki, *legato* usuli glissando sifatida aks etadi. Ushbu registrda *p* va *pp* dinamikasini ishlatib bo'lmaydi.

Qo'shnayda *krescendo* va *diminuendo*, *pp* dan *ff* gacha bo'lgan barcha dinamik vositalarni sermahsul ishlatish imkoniyati bor. Qo'shnay texnik jihatdan harakatchan emas. Shu bois ham, uning zimmasiga kuychan partiyalarni ifoda etish vazifasi yuklatiladi. Zero, qo'shnay juda yorqin melodik soz bo'lib, chiroyli tembrga ega. Ansambl va orkestr tarkibida qo'shnay aksariyat hollarda yakkaxon cholg'u sifatida qatnashadi. Shu bilan birga, qo'shnay garmonik matoni aks ettirishda ham qatnashadi.



TORLI-URMA CHOLG'ULAR

Chang

Darvishali Changiyning tabiri bilan aytganda, chang-musiqiy sozlarning kelinchagi. Uning aytishicha, chang Quyosh sistemasining harakatchan sayyorolari qatoriga kiruvchi Zuhra yulduziga bag'ishlangan bo'lib, qadim afsonalarda Zuxra musiqachilarning rahnamosi sifatida gavdalanadi. Sharqda Zuxra obrazi, odatda qo'lida chang sozi bilan ifodalangan bo'lib majoziy osmon musiqachisi sifatida aks etadi. Manbalarda aytilishicha, chang sozining yaratilishi afsonaviy qadim Eron shoxi Jamshid hukmronligi zamoniga to'g'ri kelib, Bobil (Mesopotamiya) dan Xitoy davlatigacha bo'lgan ulkan hududda tarqalgan. Changiy o'z risolasida bayon etishicha, chang ovozining sadosi juda og'ir bezgak kasaliga qarshi qo'llanilar ekan. Manbada keltirilgan ma'lumotga ko'ra, qadimda shaybonizoda Abdullaxon (1583-1598) zamonida Xo'jayi kalon Shayx Xo'ja Sayyid bezgak bilan og'rib qolibdi. Uni davolagan tabib Sulton Muhammad sog'ayish uchun Shayxga chang ijrosini tinglashni maslahat beribdi. Maslahatga amal qilgan Xo'jai kalon Darvishali Changiyni o'z saroyiga taklif etib, uch oy mobaynida chang sozini tinglabdi va natijada sog'ayib ketibdi. Changiyning ta'rif berishicha, chang 26 ta tor va 7 ta ladga ega. Har bir lad ma'lum bir maqomni chalishga mo'ljallangan. I lad-Rost; II-Navo; III-Hijoz; IV-Zangula; V-Husayniy; VI-Iroq; VII-Ko'chak. Biroq o'n ikki maqomning barchasini chala olish uchun sozanda ijro jihatidan mutlaq mukammallikka erishmog'i lozim. Bugungi kunga kelib, chang sozi yanada rivojlanib, takomillashtirildi. Changdan taraladigan davomli sadoni yo'qotish uchun maxsus pedal ishlab chiqildi. Sotanda pedalni o'ng oyog'i bilan ishga soladi. Ilgari xalq orasida qo'llangan changning tovushqatori diatonik bo'lgan. Hozirda esa changning tovushqatori xromatik, ya'ni yarim tonliklar asosida temperatsiyalangan. Chang uchiga

rezina qoplangan bambukdan yasalgan maxsus cho'plar bilan urib chalinadi. Ijro imkoniyatlarining boshqa usullari mavjud.

Tremolo-rez.

Pizzicato col legno- torni cho'pning yog'ochi bilan tirnash.

Pizzicato- torni barmaq bilan chertish.

Glissando col legno-torlar bo'ylab sirpanish. Glissandoning xromatik va diatonik turlari mavjud.

Con sordini- davomli sadoni barmaq bilan to'xtatish.

Vibrato- torni barmaq bilan tebratish.

Rekonstruksiya qilingan changning bir necha turlari bor: *pikkolo*, *prima*, *tenor* va *bas*. Changning ushbu turlari bir-biridan ovoz hajmi, tuzilish hajmi hamda torlarining joylashuvi jihatidan farq qiladi. Ovoz chiqarish usullari va imkoniyatlari esa bir xil.

Chang turlarining ovoz hajmi:


Chang-pikkolo-birinchi oktava "do"dan uchinchi oktava "lya" gacha.

Chang-prima-kichik oktava "sol"dan uchinchi oktava "lya" gacha.

Chang-tenor-transport qilinadigan cholg'u hisoblanadi. U yozilishiga nisbatan bir oktava past yangraydi. Chang-tenorning 2 turi bor. Chang-tenor N1ning ovoz hajmi katta oktava "sol" dan ikkinchi oktava "mi" gacha. Chang-tenor N2ning ovoz hajmi kichik oktava "do" dan birinchi oktava "sol" gacha. Bugungi kunda ijro amaliyotida asosan Chang-tenor N1dan foydalaniladi.

Chang-bas-katta oktava "do"dan kichik oktava "sol" gacha.

Chang-musiqiy matoni ham garmonik, ham ritmik, ham melodik jihatdan to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan sozdir. Unda har turli intevallar, arpedjio holdagi akkordlarni ifodalash mumkin. Chang hattoki, doiraga xos "bum-bak" ko'rinishidagi ritmik usullarni ham aks ettira oladi. Uning yorqin tembri orkestr va ansambl tarkibida yakkanavoz sifatidagi qatnashuvini ta'minlaydi.



MEZROBLI CHOLG'ULAR


Rubob

Rubob Osiyoning ayrim xalqlari o'zbeklar, tojiklar o'rtasida qadimdan keng tarqalgan torli-tinama cholg'udir. XIV asrda noma'lum muallif tomonidan yozilgan "Qazn al-tuha" (Xazinalar tuhfası) nomli risolada yozilishicha, rubob o'rik yoki olxo'ri daraxtidan yasaliib, uning 7 ta tori bo'lgan. Rubobning bu xili hozirda faqat Pomirda mavjud. XIX asrning oxiriga kelib, rubobning boshqa turi "qashqar rubobi" nomi ostida keng tarqala boshladi.

Qashqar rubobi


Markaziy Osiyo xalqlariga nisbatan Xitoyning Shinjon muxtor tumanida yashovchi uyg'urlar orasida keng tarqalgan rubobning turi qashqar rubobi deyiladi. Rubobning kosasi qazma, ya'ni o'yilib ustiga teri qoplangan, dastasiga esa ipak yoki ichakdan qilingan pardalar bog'langan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qo'llanilayotgan rubob qayta ishlanib, yarim tonliklar asosida temperatsiyalangan. Transport qilinadigan soz bo'lib, yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Undagi besh torning to'rttasi sim tor bo'lib, beshinchisi ichak tordir. Rubobning torlari kvarta bo'yicha joylashgan. Qashqar-rubobida ovoz chiqarish mezrob (mediator) yordamida amalga oshiriladi. Bunda mezrobning pastga




tomon harakati "n", yuqoriga harakati "v" belgisi bilan ifodalanadi. Qashqar rubobining ijro imkoniyatlarining boshqa usullari: tremolo, qisqa tremolo, stakkato, legato, glissando, arpedjio va boshqalar.

Qashqar rubobida har turli interval va uchtovushlik akkordlarni olish imkoniyati bor. Bundan tashqari, forshlag hamda nola va qochirimlar qashqar rubobining ohang matosiga alohida jilo beradi. Qashqar rubobi har xil tembrli torlarga ega bo'lgani uchun ohang bo'yoqlari o'ziga xos. Uning pastki "si" tori o'ziga xos yog'on ovozga ega bo'lgani bois ma'lum bir musiqiy matoda uni "bum" yoki bas tovushi sifatida ishlatish mumkin. U holda torlarning vazifasi quyidagicha bo'ladi: "si" tori-bas, yuqori torlar esa mavjud garmoniyaning yuqori qismini aks ettiradi. Bunday polifonik holatni yuzaga keltiruvchi imkoniyat, aynan, qashqar rubobiga xosdir. Zero, torlarining temбри orasidagi farq shuni taqozo etadi. Qashqar rubobi texnik jihatdan harakatchan cholg'u bo'libgina qolmay, balki yakkaxon kuylarni ijro eta olishi, shuningdek, jo'rnavez sifatida garmonik vazifani bajara olishga qodirligi bilan ham yetakchi sozlar qatoriga kiradi. Bugungi kunga kelib, rekonstruksiya qilingan rubob asosidauning bir necha turlari yuzaga keldi. Bular: *rubob-prima*, *rubob-metsosoprano*, *rubob-alt*.



Rubob-prima

Ruboblar oilasida rubob-prima eng yuqori registrni egallaydi. Uning to'rtta tori bo'lib, kvinta bo'yicha sozlanadi. Rubob prima skripka kalitida notalashtiriladi. Rubob-prima ijro imkoniyatlari qashqar rubobi bilan bir xil. Qo'shimcha usullardan biri-rubob primada pitssikato usulini o'ng qo'l bilan ham amalga oshirish mumkin. Bunda notaning ustiga "+" belgisi qo'yiladi. Ushbu soz to'rt tovushli akkordlarni ham ijro eta oladi.



Rubob-metssosoprano

Rubob-metssosoprano ruboblar oilasida o'rta registrni egallaydi. Uning beshta tori kvarta bo'yicha sozlanadi. Rubob-metssosoprano skripka kalitida notalashtiriladi. Qashqar rubobiga tegishli barcha ijro imkoniyatlari rubob metssosopranoga ham tegishli hisoblanadi. Torlarining yangroqilik xarakteri orasida farq yo'q.

Rubob-alt

Rubob-alt o'rta registrni egallaydi. Uning beshta tori kvarta oralig'ida sozlanadi. Rubob-alt partiyasi skripka kalitida notalashtiriladi. Rubob-altga xos ijro imkoniyatlari qashqar rubobi bilan bir xil. Rubob-alt yumshoq tembrli soz bo'lib, torlarining yangrashini orasida farq yo'q. Bu cholg'uni nafaqat yakkaxon yoki konsert ijrochiligida, balki bolalar musiqa maktablarida ham qo'llash mumkin.


Afg'on rubobi

Afg'on rubobi qadimiy cholg'ulardan bo'lib, uni *Buxororubobi* deb ham ataganlar. Eski Buxoro yoki afg'on rubobining 17 tadan 20 tagacha tori bo'lgan. Shundan oltitasi asosiy bo'lib, beshtasi ichakdan va bittasi kumushdan yasalgan. Qolgan 11 tadan 14 tagacha torlari po'lat simli, ya'ni sado berib turuvchi torlar hisoblangan. Oltita asosiy tor qorinning ustki qismidagi xarrakdan sozning bosh qismidagi quloqlarga, qolgan torlari esa shu xarrak ostidagi teshiklardan sozning dastasidan chap tomonda joylashgan quloqlarga ulangan. Soz yog'ochdan, hayvon suyagi yoki shoxidan ishlangan bo'lib, mezrob (noxun) bilan chalingan.¹ Afg'on rubobi 1935-1937 yillarda o'zbek xalq cholg'ulari orkestri va ansamblari

¹ Ф. Караматов «Узбекская инструментальная музыка». Т. Издательство им. Г. Гуляма 1972. стр 140-141

tarkibiga kiritildi. 1940-yili afg'on rubobi A.I.Petrosyans rahbarligidagi San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining tajribaviy laboratoriyasida rekonstruktsiya qilindi. Sozning yordamchi soz beruvchi torlari olib tashlanib, dastasi uzunlashtirildi, qorni ixchamlashtirildi, dastaga temperatsiyalangan yarim tonlik tovushqatorga asoslanib, ebonit qalamchalaridan 19 ta parda o'rnatildi.

Bugungi kunda rekonstruktsiya qilingan afg'on rubobi, qashqar rubobi singari o'rta registrni egallaydi. Beshta tori bo'lib, kvarta bo'yicha joylashgan. Afg'on rubobi partiyasi skripka kalitida notalashtiriladi. Transport qilinadigan soz bo'lib, yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Qashqar rubobiga xos barcha ijro imkoniyatlari afg'on rubobiga ham tegishli hisoblanadi. Afg'on rubobining tembri qashqar rubobiga nisbatan bo'g'iqlik bo'lib, uni vazmin va salobatli xarakterga ega deyish mumkin. Shu bois, aynan shu harakterdagi kuylar afg'on rubobi ijrosida maromiga yetib yangraydi. Afg'on rubobi ohangiga xos bo'lgan falsafiy mushohadaviy xususiyati uning yakkanavoz sifatidagi ishtirokida o'z ifodasini topadi.



Ud

XII asrning musiqashunos olimi Safiuddin al-Urmaviy o'zining "Risolatun ash-Sharafiya" nomli risolasida ud haqida gapirib: "Bilgilki, ud-sozlar orasida eng mashhur va mukammaldir", - deydi.

Darvishali Changiy o'zining musiqiy risolasida ud soziga shunday ta'rif beradi: "Ud-barcha musiqiy cholg'ularning shohi. Ohangining yoqimlilik va ovoz hajmining kattaligi bilan torli cholg'ular orasida eng afzali bo'lib hisoblanadi. Ud 12 ta juft-juft bo'lib sozlanadigan oltita tovush tarannum etuvchi torlarga ega bo'lib, ular ipakdan yasalgan. Asosiy oltita


tordan har biri o'z nomiga ega: I-xadd, II-zir, III-lison, IV-maslas, V-bam, VI-muxtalif". O'rta asrga oid manbalardan shuni bilish mumkinki, udning dastlabki nomi "barbad" bo'lgan. Barbad ikki sozdan iborat bo'lib, "bar"-qomat, "bad"-o'rdak ma'nolarida keladi. Barbad-qorni katta va dastasi kalta musiqa asbobidir.² O'rdak qomatiga o'xshagani uchun unga shunday nom berilgan ekan. Avvaliga udning to'rtta tori bo'lgan. Keyinchalik bu soz musiqachilar tomonidan yanada mukammallashtirilib, beshta, so'ng esa oltita torga ega bo'ldi va ud deya atala boshladi.

Barbad hozirgi zamonaviy udning ilk namunasi bo'lib, o'z davrida ko'plab mamlakatlarga mashhur bo'ldi va turli xalqlar musiqa madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.³ Hozirda ud ham rekonstruktsiya qilingan. Ovoz hajmi o'rta va quyi registrlarni o'z ichiga oladi. Udning 11 ta tori bor: birinchidan to beshinchigacha bo'lgan torlari juft-juft bo'lib, unison tarzida sozlanadi. Oltitasi esa bitta tordan iborat. Ud sozi skripka kalitida notalashtirilib, yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Udning torlari ichakdan yasalgan bo'lib, tembri jihatidan afg'on rubobiga yaqin turadi. Biroq udning ovozi afg'on rubobinikiga nisbatan pastroq yangragani bois, ud kamer ijro uchun mo'ljallangan. Udning tembri baxmaldek bo'lib, muloyim va yumshoq yangraydi. Ud sozi mezrob (mediator) yordamida *tremolo* hamda *stakkato* usullari bilan chalinadi. Qadimda udni chalishda qushlarning patidan foydalanilgan. Hozirgi kunda mezrob ebonit yoki plastmassadan tayyorlanadi.

Ud-texnik jihatdan harakatchan soz. Unda harakatchan va ohista kuylar birdek yaxshi yangraydi. Aksariyat hollarda ud yakkaxon cholg'u sifatida qatnashadi. Udning xarakteriga xos bo'lgan vazminlik va falsafiylik uning zimmasiga yuklatiladigan kuylarga o'zgacha kayfiyat beradi. Ayniqsa, milliy musiqamiz namunalari ud ijrosida o'zining maromiga yetib yangraydi.

²I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T. 1963y. 14-bet.

³Визго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, стр 81.



Tanbur

Darvishali Changiyning tar'if berishicha, tanbur-barcha musiqiy sozlarning ustози "Tanbur" so'ziyunon tilidan olingan bo'lib, "tan"-yurak "bura"-tirnamoq ma'nosini bildiradi.

Abu Nasr al-Farobiy o'zining musiqiy risolasida ma'lumot berilishicha, tanbur torli cho; g'ularning boshqa turlaridan ko'ra udga yaqin turadi. Tanbur ham ud singari xalq orasida keng tarqalgan va suyukli bo'lgan cholg'u. Farobiy shunday deydi: "Biz yashagan yurtida tanburning ikki turi bor:

1. Xuroson tanburi-Xuroson va sharqdan shimolgacha unga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarda mashhur;

2. Bag'dod tanburi-Iroq va uning yaqinidagi yurtlarda ma'lum. Bu ikki xil tanbur ham shakl, ham pardalarning joyashuvi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ikkala tanburda ham torlarning joylashishi bir-xil. Ammo Xuroson tanburi Bag'dod tanburiga nisbatan mukammalroq bo'lib, unda juda ko'p musiqiy asarlarni ijro etish mumkin". Bizning davrimizga kelib, ushbu qadimiy cholg'u asbobi O'zbekiston, Tojikiston, Xitoyda keng tarqalgan. Tanburning kosasi nok shaklida o'yilib yoki bir necha "qobirg'a" lardan yopishtirilib tayyorlanadi, unga uzun dastaulanadi. Dastaga ichakdan qilingan parda bog'lanadi. Baland tovushlar olish uchun ichak pardalardan tashqari qopqog'iga has parda deb nomlanuvchi kichik va kalta cho'plar yopishtiriladi. Tovushqatori diatonik bo'lib, 4 ta sim tor taqiladi. 1, 2 va 4-tor bir ovozli unison tarzida, 3-tor kvarta, kvinta, ba'zan sekundaga sozlangan. Tanburning bunday sozlanishi ijro etiladigan asarga bog'liq bo'lgan. XX asrning birinchi yarmida o'zbek xalq

cholg'ulari qatorida tanbur ham rekonstruktsiya qilindi. Uning pardalari cho'pdan qilinib, pardaga doimiy o'rnashtirildi. Tovushqatori temperatsiyalanib, yarim tonlik xromatik holga keldi. Tanbur ohang jihatdan o'rta va quyi registrlarni egallaydi. Uning partiyasi skripka kalitida notalashtirilib, yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Tanbur o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'iga kiyiladigan maxsus noxun bilan chalinadi. Chalinganda faqat birinchi tor urilib, qolganlaridan qo'shimcha sado olish uchun foydalaniladi. Ayrim vaqtlarda bu torlarning hammasi bir yo'la uriladi. Natijada akkordsimon tovushlar eshitiladi. Tanbur ijro imkoniyatlariga tremolo va bosh barmoq bilan amalga oshiriladigan pitssikato ham kiradi. Tanbur harakatchan soz emas. Tovushlarni takrorlab, maydalab chalish tanburga xos bo'lgan xususiyatdir.


Tanburda har turli interval uchtovushlik va to'rtovushlik akkordlarni chalish imkoniyati mavjud. Ammo uning tabiati, harakteri va o'ziga xos yorqin tembri tanburni yakkanavoz, kuychan-bo'yoqli cholg'u sifatida ishlatishni taqazo etadi. Shu bois, asarning lirik-epizotik lavhalarida ayrim yakkanavoz partiyalarning ayna tanbur zimmasiga yuklatilishi musiqiy matoga o'ziga xos ijro beradi. Tanbur quyi regstrni egallashia qaramay, ansambl tarkibida bas vazifasini bajara olmaydi. Shu jihatdan ham kamer cholg'u hisoblanadi.



Dutor

Dutor-o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan torli tirnama cholg'udir. Dutor ikki qism-dasta va kosadan iborat bo'lib, bularni birlashtiruvchi qism "bo'g'iz" deb ataladi. Dutor kosasi o'yma yoki "qobirg'a" chalarini birlashtirib tayyorlaninshi mumkin. "O'yma dator" Samarqand, Xorazm, Turkmanistonda qo'llanilib, tut yog'ochidan ishlanadi. Bunda 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiradi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi.

Dastasi olma yog'ochidan yasalib, 13-14 ichak parda bog'lanadi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta, kvinta, unison va oktavalarga sozlangan. Dutorni sozlashning ushbu xillari ayni vaqtda an'anaviy ijrochilik sohasida qollaniladi. Bunda soz aniq bir balandlikda emas, balki sozanda va honandaning hohishi bo'yicha, turlicha balandlikda bo'lishi mumkin. Bugungi kunga kelib, ushbu soz takomillashtirildi. Uning asosida dutorlarning bir necha xili yuzaga keldi. Bular: dutor-prima, dutor-sekunda, dutor-alt, dutor-tenor, dutor-bas va dutor-kontrabas.



Dutor-tenor

Dutor-tenor yuqorida ta'riflangan dutorga har jihatdan yaqin bo'lib, uning farqi-tovushqatorining temperatsiyalanganligidir. Dutor-tenor o'zining ohanggi bo'yicha o'rta registrni bir qismi va quyi registrni egallaydi. Skripka kalitida notalashtiriladi va yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Ushbu cholg'uning 2 ta tori kvarta bo'yicha sozlanadi. Ovoz chiqarish usullarining xilma-xilligi jihatdan musiqiy cholg'ular orasida eng boy hisoblangan soz-dutordir. Undagi ijro usullari: *bilak zarb*, *ko'rsatkich* va *bosh barmoq zarbi* (*yakka zarb*). Bu usulda ikkala tor ham yangraydi. Odatda, dutorning nota yozuvida zarbning turi belgilar bilan ifodalanadi:

K.B-ko'rsatkich barmoq zarbi;

B.B-bosh barmoq zarbi;

B.Z-bilak zarb.

Terma zarb ikki usul bilan amalga oshiriladi:

1) ko'rsatkich va bosh barmoq zarbini tez sur'atda bir maromda almashtirib turish. Mazkur uslub xalq cholg'u ijrochiligida ishlatiladi;

2) ko'rsatkich barmoqning yuqori va pastga tomon tez sur'atda harakatlanishi.

Pitssikato-faqat bitta torli chertish yo'li bilan 2 xil usulda ifodalanadi:

1) yakka pitssikato-bosh barmoq bilan pastga tomon chertish;

2) qo'sh pitssikato-bosh barmoq bilan pastga va ko'rsatkich barmoq bilan yuqoriga tomon navbatma-navbat chertish:

Dutor ijrosining rang-barangligini ta'minlovchi yana ko'plab usullar mavjud. Bular: glissando, chertmak, o'ng qo'l ni ishlatmasdan turib chap qo'l bilan torni chimdib ovoz chiqarish.

Dutor-tenor tabiatan ikki ovoqli soz bo'lib, uning ayna shu xususiyati ijro amaliyotda o'z aksini topgan. Ohanggi va jarangdorligi u qadar yorqin bo'lmagani bois, bir ovoqli pitssikatodan farqli o'laroq, ikki ovoqli intervallar tovush yaxlitligini ta'minlab beradi. Shunga ko'ra, dutorda har turli intervallar yaxshi yangraydi. Binobarin, bu intervallarda ochiq simlarning qatnashish yoki qatnashmasligi ham mumkin.

Dutor-tenor orkestr va ansambllarda, asosan, yakkaxon soz sifatida qatnashadi. Shu bilan birga, uni jo'rnavez sifatida ham ishlatish mumkin. Texnik imkoniyatlari cheklanganligiga qaramay, o'ziga xos yumshoq tembri va ijro usullarining boyligi bilan yakkaxon ijrochilikda kamer cholg'u sifatida o'rin tutadi.

Dutor-prima


Dutor-prima-dutorlar orasida eng yuqori registrni egallaydigan cholg'u. U skripka kalitida notalashtiriladi. Ichakdan yasalgan torlari kvarta bo'yicha sozlanadi.

Dutor-sekunda

Dutor-sekundaning ovozi o'rta registrni egallaydi. Dutor-sekunda partiyasi skripka kalitida notalashtiriladi. Ichikdan sozlangan torlari kvarta bo'yicha sozlanadi.


Dutor-alt

Dutor-alt ovoz hajmi bo'yicha o'rta registrni egallaydi. Dutor-alt skripka kalitida notalashtiriladi va yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Torlari kvarta bo'yicha sozlanadi. Dutor-tenorga xos bo'lgan barcha ijro imkoniyatlari dator-prima, dator-sekunda, dator-altga ham tegishlidir. Bu sozlar ansamblda ham yakkanavozlik, ham jo'rnavezlik vazifasini bajara oladi. Ayniqsa, ritmik va garmonik asosini ushlab turishda dutorlarning o'rni muhim hisoblanadi.



Dutor-bas

Ushbu cholg'u sozining birinchi lya tori ichakdan yasalgan bo'lib, qolgan torlari metal torlar. Dutor-bas yuqorida ta'riflangan dutorlardan farqli o'laroq mezrob (mediator) yordamida chalinadi. Uning ijro usullari- *tremolo*, *stakkato*, shuningdek, bosh barmoq bilan chalinadigan *pitssikato*. Dutor-basda tremolo usulini faqat bitta torda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, torlar orasidagi masofaning kattaligi bois tremolo usulini ikki yoki uchta torga nisbatan ishlatish juda qiyin. Dutor-bas xilma-xil interval, uchtovushlik va to'rttovushlik akkordlarni qiyinchiliksiz ijro eta oladi. Ayniqsa, ushbu interval va akkordlarning tarkibida ochiq simlarning mavjud bo'lishi ijroda ma'lum darajada qulaylik yaratadi. Ko'rinib turibdiki, dutor-bas yuqorida ta'riflangan dutorlardan o'zining tuzilishi va tabiati jihatidan, umuman, farq qiladi. Orkestr va ansambl tarkibida dutor-bas, asosan, bas vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, u garmonik matoni to'ldirishda ham qatnashishi mumkin. Dutor-basning yuqori registry afg'on rubobining tembriga yaqin bo'lgani bois, uning ijrosida yakkanavoz partiyalar ham yaxshi yangraydi.



Dutor-kontrabas

Dutor-kontrabas ohang jihatidan eng quyi registrni egallaydi. U bas kalitida notalashtirilib, yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Dutor-kontrabasning 4 ta tori kvarta bo'yicha sozlanadi.

Dutor-kontrabas qalin teridan yasalgan katta mezrob yordamida chalinadi. Mezrob bilan tremolo ijro usulini amalga oshirish mumkin. Bu holda "trem." belgisini qo'yish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o'ng qo'lning bosh barmog'i yordamida pitssikato usulini qo'llash mumkin. Dutor-kontrabasda oktava hamda kvinta intervallarini chalish imkoniyati bor. Bunday hollarda interval tarkibida ochiq tor bo'lishi shart. Dutor-kontrabas texnik jihatdan harakatchan emas. Ushbu soz orkestr va ansambllarda bas poydevori sifatida qatnashadi.

URMA ZARBLI CHOLG'ULAR

O'zbek musqasida urma-zarbli cholg'ularga katta o'rin ajratilgan. Bular: *doira, nog'ora, safoil, qayroq* va boshqalar. Bu sozlar ansamblning dinamik imkoniyatlarini kengaytirib, uning yanngrashini turli ritm va tembr bilan boyitadi. Shuningdek, ritmik asos sifatida cholg'u guruhлари orasidagi ansambl yaxlitligini ushlab turish va ansamblni boshqarish urma-zarbli cholg'ularning yetakchi vazifasi hisoblanadi.

Doira

Doira-o'zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'udir. Unga nisbatan "childirma", "chirmanda" degan nomlar ham qo'llanilgan. Diametri taxminan, 400 mm bo'lgan, gardishi ilgarilari uzum zangidan qilingan. So'nggi vaqtlarda yog'ochni egib yoki kichik yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab yasaladi. Doiraning gardishiga teri qoplanadi. Qirqdan ortiq halqachala taqilib, ular doirani chalganda qo'shimcha sado beradi.

Tarixchi A. F. Eyxgornning ta'rif berishicha: "Chirmanda-o'zbeklarda eng ko'p ishlatiladigan cholg'u bo'lib, qo'shiq va raqsga jo'rlik vazifasini bajaradi. U shuningdek, qo'g'irchoq teatri komediyalari, mazxarabozlarining turli xil tomoshalari va ziyofatlarda ham ishlatiladi".

Doira Markaziy Osiyo hududida ikki ming yil avval paydo bo'lib, xalqlarning musiqiy hayotida muhim o'rin tutib keldi. Albatta, bu davr ichida uning tuzilishi o'zgardi. Zero, doira bugungi kunda "buben" nomi bilan ma'lum bo'lgan urma cholg'uning avlodidan hisoblanadi.

Doira-dinamik, tembr va ritmik imkoniyatlarning mutloq egasidir. Sababi, Sharq xalqlari musiqasida ritmning o'rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Doiraga xos musiqiy matoning asosida esa o'rta

asrlarda Sharqning buyuk musiqa nazariyotchilari tomonidan ishlab chiqilgan va shu kungacha musiqiy amaliyotda muayyan o'zgarishlarga uchragan usullar tizimi yotadi.

Doirada ovoz chiqarish uchun ijrochining ikki qo'li va barmoqlari ishlaydi. Qadimda doira bir chiziqli yozuvda ifodalangan. Doiraga xos tembr va dinamik ohang effektlari ijroda katta ahamiyatga ega. Turli ijro usullari bilab ham amalga oshiriladigan ushbu doira ohanglarining ahamiyatini saqlash maqsadida, cholg'ushunos olim A.I. Petrosyans doira yozuvini notalashtirishning zamonaviy tizimini ishlab chiqdi. Ushbu tizimga asosan, doira odatiy nota belgilari vositasida, o'ng qo'l uchun ikki va chap qo'l uchun ikki chiziqli yozuvda notalashtiriladi.

Doiraning boshqa ijro usullari:

1. Notaga "+" belgisi qo'yilganda, ikkala qo'lning to'rtinchi barmog'iga noxun taqib chalish kerak.

2. Notaga "x" belgisi qo'yilganda, doira halqalarini silkitib ovoz chiqarish kerak. Halqalardan chiqadigan ovoz "shing'iroq" deyiladi.

3. Notaga "·" belgisi qo'yilganda, doira terisining o'rtasi yoki chetiga tirnoq bilan chertib chalish kerak.

4. Notaga "Δ" belgisi qo'yilganda, bosh barmoqdan to'rtinchi barmoqni sirg'antirib, doira terisiga chertib chalish kerak.

5. Notaga "∼" belgisi qo'yilganda, bosh barmoqning uchi bilan doira gardishi bo'ylab sirg'antirib, dirillatib chalishni bildiradi.

6. Notaga "*" belgisi qo'yilganda, doiraning mambranasiga zarb bergandan so'ng undan qo'l uzmaslik kerak. Bu usul ovozni bir lahzada bo'g'adi.

Rez.

Doiraning ijro imkoniyatlari keng bo'lib, har qanday texnik murakkabliklarga ega bo'lib, ritmik formulalarni ifoda eta oladi. Doira qadim davrlardan boshlab qo'shiq, cholg'u musiqa, raqsga jo'r bo'lib, musiqiy matoning ajralmas bo'lagiga aylandi. Shu sababli, musiqaning har bir janrida doiraning o'ziga xos ritmik formulalari, ya'ni doira usullari qaror topdi. Ular bir necha yo'nalishga bo'linadi:

1. Raqs uchun ishlatiladigab doira usullari. Ular ancha murakkab bo'lib, "yakka qars", "zang" va shunga o'xshash nomlarga ega. Bulardan bir

nechasi qo'shilib, yaxlit bir raqs o'yini hosil bo'ladi. Keng tarqalgan raqs zarblari "Oqsatma", "Gul o'yini", "Chor raqsi" va boshqalar.

2. Xalq ashulalariga jo'r bo'luvchi doira usullari.

3. Maqom yo'llariga jo'r bo'luvchi doira usullari. Maqomlarda bir turli nom bilan ataladigan hamma kuylarning doira usullari bir xil. Masalan, Shashmaqomda barcha "Tasnif"larning doira usuli bir xil.



Nog'ora

Nog'ora qadimiy urma-zarbli cholg'u. U sopoldan yasilib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Nog'oraning uchta turi bor:


1. Rez nog'ora-hajmi kichik bo'lib, baland ovozga ega.

2. Ko's nog'ora-hajmi o'rtacha bo'lib, kichik nog'oraga nisbatan pastroq ovozga ega.

3. Do'l nog'ora-hajmi katta bo'lib, momaqaldirqsifat ovozga ega. U bitta qalin cho'p bilan chalinadi. Qadimda do'l-nog'oraning ovozi xon yoki amirning shaharga kirib kelatotgani yoki shahardan chiqib ketayotganidan darak bergan.


Musiqiy amaliyotda qo'sh-nog'oradan keng foydalaniladi. Qo'sh-nog'ora bir-biri bilan bog'langan rez va ko's-nog'opralardan tashkil topadi. Ularning ovozi orasidagi munosabat taxminan kvarta intervalini berib, xuddi doiradagi singari "bak" va "bum" tovushlarini ifoda etadi. Qo'sh-nog'ora ikkita ingichka uzun cho'p bilan urib chalinadi. Uning nota yozuvi bir chiziqda ifodalanadi.

Nog'ora usullari, asosan, muayyan bir marosim bilan bog'liq tadbirlarda ijro etiladi. Aksariyat hollarda, nog'ora, sunray va karnay bilan ansamblda, shuningdek, orkestrda ham ishlatiladi.



Safoil

Safoil-O'zbekiston, Tojikiston va Xitoyda keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi zarbli cholg'udir. U ikki bo'lak qattiq yog'och kaltachadan iborat. Bu kaltakchalar mayda temir halqachalar taqilgan ikkita katta temir halqaga o'rnatiladi. Safoilni silkitib, yelkaga urib shovqinli, turli murakkab tovushlar chiqariladi. Safoil odatiy nota belgilari yordamida bitta chiziqli yozuvda notalashtiriladi. ansambl va orkestr tarkibida safoil epizodik cholg'u hisoblanadi. Safoil qadimda sayohatchi xonandalar, darvishlar tomonidan ishlatilgan hozirda u raqslarga jo'r bo'lish uchun ishlatiladi.



Qayroq

Markaziy osiyo xalqlari orasida tarqalgan urma-zarbli cholg'udir. Yapaloq, tekis qilib silliqlangan to'rtta qayroq tosh-har bir qo'lga bir juftdan ushlanib, silkitib yoki titratib chalinadi. Qayroq odatiy nota belgilari yordamida bitta chiziqli yozuvda notalashtiriladi. Qayroq raqsga jo'r bo'luvchi ritmik usullar ijroi uchun mo'jallangan bo'lib, aksariyat hollarda raqqos yoki raqqosa tomonidan chalinadi. Qayroq turli ansambllar tarkibida ham o'ziga xos tembri yordamida musiqiy matoga alohida jilo beradi.



TORLI KAMONLI CHOLG'ULAR

G'ijjak

G'ijjak O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan torli-kamonli cholg'udir. Qadimda g'ijjakning tasviri "Qazn al-tuhaf" ("Xazinalar tuhfasi") nomli risolada ko'rish mumkin. Unda ta'riflanishicha, g'ijjakning kosasi yarim shar shaklida bo'lib, teri bilan qoplangan. Dastasi uzun bo'lib, yong'oq yoki qora daraxtdan yasalgan. G'ijjakning tori kvarta bo'yicha sozlanib, xarrak orqali o'tadi. Kamon ot dumidan yasalgan.⁴ Ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'riflangan ushbu qadimiy soz bizga ma'lum bo'lgan g'ijjakka juda yaqin.

XX asrning 30-yillarida g'ijjak qayta ishlandi. Zamonaviy g'ijjak 4 ta torga ega bo'lib, kvarta bo'yicha sozlanadi. G'ijjakning kosasi ostidagi oyoqchasi kursida o'tirib chalish uchun qulaylashtirildi. G'ijjakning ovozi ansamblda yuqori registrni egallab, skripka kalitida notalashtiriladi. G'ijjakni chalishning eng asosiy usuli-chap qo'lning 4 ta barmog'ini ishlatgan holda, o'ng qo'l bilan kamonni tor bo'ylab yurgizishdan iborat.

⁴Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, стр 86.


Bu usul-arco deb ataladi. G'ijjakni kamonsiz barmoq bilan chertib chalish pitssikato deyiladi. Chap qo'l bilan chalinadigan murakkab pitssikato ham mavjud. Bunday hollarda notaning ustiga "+" belgisi qo'yiladi.

Ijro imkoniyatlarining yana boshqa usullari: *detashe*, *legato*, *stakkato*, *martele*, *spikkato* va boshqalar. Turli xil *trel*, tremolo hamda *flajoletlar* (absamblda asosan, tabiiy flajoletlarga ega bo'lgan musiqiy partiyalarni ham uddalaydi.

G'ijjakning yuqorida sanab o'tilgan boy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uni ansambl tarkibida ham yakkanavoz, ham jo'rnavoz sifatida ishlatish mumkin. Shu bilan birga, yuqori registrdagi yorqin tembri g'ijjakni aksariyat hollarda kuy tizimini rivojlantiruvchi yetakchi soz o'rnida qo'llashni taqozo etadi.

G'ijjak rekonstruksiya qilinganidan so'ng, uning bir necha turlari ro'yobga keldi. G'ijjaklar oilasiga kiruvchi torli-kamonli cholg'ularga- *g'ijjak*, *g'ijjak-alt*, *g'ijjak-bas*, *g'ijjak-kontrabas* kiradi.

G'ijjak-alt G'ijjak-alt torli-kamonli guruhning o'rta registrini egallaydi. Ushbu cholg'u sozi alt kalitida notashtiriladi va kvinta bo'yicha sozlanadi.



G'ijjak-bas (Qobuz-bas)

G'ijjak-bas qozoq xalqining musiqa madaniyatida o'rin tutgan qobuz cholg'usi asosida yasalgan. "Qobuz" sozining kelib chiqishini qozoq xalqining afsonaviy qahramoni Ota Qo'rqit⁵ nomi bilan bog'liq, deyiladi ayrim manbalarda.⁶ Bugungi kunda aynan qobuz-bas va g'ijjak-kontrabas deb ham ataydilar.

G'ijjak-bas torli kamonli cholg'ular guruhining quyi registrini egallaydi. U bas kalitida notalashtirilib, torlari kvinta bo'yicha sozlanadi.


⁵Ota Qo'rqit-turkiy xalqlar, xususan, qozoqlar, qoraqalpoqlar, og'izlar, qo'miqlar mifologiyasida birinchi baxshi, baxshilar va ashulachilar piri, qo'biz cholg'u asbobining ixtirochisi, sozanda va bastakordir.

⁶Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии, стр 87.



G'ijjak-qobuz kontrabas

G'ijjak-qobuz kontrabas kamonli sozlar guruhiga mansub soz bo'lib, u eng pastkiovoz sohibi hisoblanadi. Kontrabas uchun kuylar bas kalitida yoziladi va yozilganidan bir oktava past eshitiladi.



MILLIY MUSIQAMIZGA HISSASINI QO'SHGAN USTOZ SAN'ATKORLAR

Viktor Uspenskiy - O'zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, san'atshunoslik fanlari doktori, musiqa etnografi, kompozitor Viktor Aleksandrovich Uspenskiy o'zining ijodiy hamda jamoatchilik faoliyati bilan o'zbekiston musiqa madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Viktor Uspenskiy 1879-yili Rossiyaning Kaluga shahrida tug'ildi. Viktor tug'ilganidan ko'p o'tmay, uning oilasi O'sh shahriga ko'chib o'tadi. Uning bolalik chog'i shu yerda, ya'ni O'sh shahrida o'tadi. Otasi unga skripkadan, onasi esa fortepianodan saboq berishdi. Gimnaziyani bitirgandan so'ng, u orenburg harbiy kadet korpusida o'qiydi. Bu yerda o'qigan vaqtlarida ham musiqa bilan



Shug'ullanishni davom ettiradi. Kadet korpusidagi harbiy va simfonik orkestrda gelikon, kontrabas va arfa chaladi. 1898-yili kadet korpusini tamomladi va Kavkazdagi dragun shimol polkiga bo'lim komandiri etib tayinlandi. mazkur polkdagi harbiy xizmat undagi musiqaga bo'lgan havasini so'ndira olmadi, u musiqa amaliyoti va nazariyasi bilan astoydil shug'ullandi. U iste'foga chiqdi va 1908-yili Peterburg konservatoriyasiga o'qishga kirdi. Kompozitsiya bo'yicha professor A.Lyadov sinfida saboq ola boshladi. Biroq sil kasaliga chalinganligi sababli o'qishni vaqtincha to'xtatib, 1910-yilda shveysariyaning davos va Germaniyaning leypsig shaharlarida davolandi. davolanib qaytib, o'qishni davom ettirdi. 1913-yili Peterburg konservatoriyasini tamomlab, "erkin san'atkor" diplomini oldi. Bir yil ijod bilan shug'ullandi. Biroq, 1914-yili Birinchi jahon urushi boshlandi, u armiya safiga chaqirilib, 1917-yilgacha xizmat qildi. 1917-yil fevral inqilobidan so'ng, Uspenskiy Petrograd konservatoriyasi qaroriga binoan, mahalliy xalq qo'shiqlarini notaga olish uchun Toshkentga keldi. Uning tashabbusi bilan 1919-yili Toshkentdagi Baland masjid, Rohat bog'ida xalq konservatoriyasining bo'limi ochildi.

Uspenskiy ko'p vaqtini etnografiya ishlariga bag'ishladi. Bir necha yillar davomida o'rta osiyoda yashovchi xalqlarning qo'shiqlarini notaga yozib oldi. o'rta osiyo xalqlari musiqa folklorini o'rganish, targ'ibot qilish uchun ilmiy markaz tashkil etilib, unga Uspenskiy rahbar etib tayinlandi. U 1923-yili Buxoroga borib, shashmaqom bilimdonlari ota Jalol Nosirov, domla Halim ibodovlar ijrosida shashmaqomni notaga yozib olishga muvassar bo'ladi.

Uspenskiy 1925, 1927, 1929-yillarda Turkmaniston hukumati taklifiga binoan folklor ekspeditsiyalarini tashkil qilib, Turkman xalq musiqasini notaga yozib oladi. Viktor Uspenskiy xalq qo'shiq va kuylarni yozib olish bilan birga, ularni qayta ishladi, musiqa san'atining turli shakl va janrlarida rang-barang asarlar ham yaratdi.

"O'rta osiyo xalqlaridan to'rtta kuy" (1934y) Uspenskiyning ilk simfonik asaridir. II Jahon urushi yillarida u samarali ijod qildi. Xor uchun "O'zbekiston", "Pahlavonlar jangga o'tlaning", "Yur botirlar" kabi qo'shiqlari, G.Mushel bilan hamkorlikda "Muqanna" musiqali dramasi, "O'zbekcha rapsodiya", Alisher Navoiy xotirasiga bag'ishlab, "Lirik poema" asarlarini yaratdi. Fortepiano uchun prelyudiya, sonata, variatsiya, etyudlar, o'zbek xalq musiqasi "Miskin-2", "Muhammasi iroq",

“Savti ajam”, “Samoi dugoh va asariy” asosidagi pyesalarning birinchi to‘plami, “Ufor”, “Soqiynoma”, “Usmoniya”, “Rajabiy” pyesalarining ikkinchi to‘plami, ovoz va fortepiano uchun “Rusalka”, “Sag‘ana” “Oy nuri”, “Beshik allasi”, “Ayt nima uchun”, “Oydek to‘libdir” kabi qo‘shiq va romanslar, qayta ishlagan “Voy dodey”, “Chamanda gul ochildi” qo‘shiqlarini yaratdi. 1928-yili “Ravot qashqirlari” nomli ovozsiz kinoga musiqa bastaladi.

Viktor Uspenskiy quyidagi to‘plam va maqolalar muallifi hamdir “Shashmaqom” (1924), “Maktab bolalari qo‘shig‘i” (1924), “Turkman musiqasi” birinchi daftar 1928-yilda, ikkinchi daftar 1929-yilda nashr etigan. “Farg‘ona qo‘shiqlari” (1931), “Buxoro qo‘shiqlari va maqom parchalari” (1934-1947), “Zikr kuylari” (1940), “Uyg‘ur qo‘shiqlari” (1945), “Gulyorshaxnoz” (1931 va 1956-yilda chop etilgan), “Katta ashula” (1940y), “O‘zbek klassik musiqasi” (1927y) va boshqalar.

Viktor Uspenskiy ijodida G.Mushel bilan hamkorlikda yaratgan “Farhod va shirin” musiqali dramasi alohida o‘rin tutadi. mazkur asar musiqali dramalarni yaratishda ko‘p ovozli musiqaaning kasbiy shakllaridan foydalanishga asos soldi, bu esa o‘zbek milliy operasini yaratish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. asarning premyerasi 1936-yil 26-fevralda bo‘lib o‘tdi. Mazkur musiqali drama qayta ishlanib, moskvada 1937-yili o‘zbek san‘ati dekadasiida namoyish etildi. 1940-yili esa “Farhod va shirin” musiqali dramasi operaga aylantirildi.

Musiqa etnografi, kompozitor Viktor Uspenskiyga 1929-yili Turkmaniston xalq artisti, 1937-yili “o‘zbekiston xalq artisti” fahriy unvoni, 1943-yil san‘atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan.

To‘xtasin Jalilov - O‘zbekiton xalq artisti, bastakor, mohir sozanda To‘xtasin Jalilov XX asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U qo‘shiq, lirik ashula va raqs kuylar, musiqali drama va komediya, opera yaratib, o‘zbek musiqasi rivojiga katta hissa qo‘shdi. To‘xtasin Jalilov 1896-yili andijon shahrida tavallud topgan. Uning birinchi tanishgan musiqachisi oppoq ohun



bo'lib, u xalq cholg'u asbobi-setorni yaxshi ko'rib chalardi. To'xtasin Jalilov atoqli qo'qon musiqachilaridan Eshon g'ijjakchi, yusufjon changchilar bilan uchrashish umidida qo'qonga boradi. Yusufjon changchi yosh musiqachiga xalq qo'shiqlarini o'rgatadi. To'xtasin Jalilovning boshchiligidagi san'atkorlar bilan xalq sayllari, qishloq va shaharlardagi to'y marosimlarda qatnasha boshlaydi. Musiqiy meros sirlarini qunt bilan o'rgana boshlaydi. U "Tashviqot aravasi" ansambli jamoasida g'ijjakchi, Orifjon dutorchi, Zokir eshon doirachi, Dehqonboy hofizlar bilan birgalikda faoliyat olib boradi.

1923-yili moskvada o'tkazilgan hunarmandlar ko'rgazmasi konsert dasturida To'xtasin Jalilov ham qatnashadi. 1925-yildan Hamza tuzgan Farg'ona teatr truppasida ishlaydi, keyingi yili M.Qoriyoqubov tashkil etgan O'zbek davlat etnografik ansambliga taklif etiladi. 1928-yildan boshlab, Andijon musiqali drama teatrida musiqa rahbari bo'lib ishlaydi. Mazkur teatrdan u "Lolahon", "O'rtoqlar", "Halima", "Farhod va shirin" kabi spektakllari uchun kuy va ashulalarni xalq musiqa merosidan tanlab oladi. Keyinchalik u o'zbek davlat musiqali teatrining musiqa rahbari bo'lib ishlaydi. Bu davrda u G'.Zafariyning "Halima" spektakli musiqasini qayta ishlaydi.

1939-yilda Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri tashkil topdi. Ushbu teatrga To'xtasin Jalilov rahbar etib tayinlanadi. Uning bastakorlik faoliyati bu yerda yanada samaraliroq bo'ldi. "Tohir va Zuhra" musiqali dramasini sahnalashtirdi.

T.Jalilov o'zining bastakorlik ijodiyoti davomida o'ttizga yaqin musiqali drama, 200 dan ortiq qo'shiqlar yozdi. o'zbekiston musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun 1937-yilda To'xtasin Jalilovga O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni berilgan.

Yunus Rajabiy (1897-1976) - XX asr o'zbek san'atiga ulkan hissa qo'shgan san'atkorlar sulolasining sarboni Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkent shahrining Chaqar mahallasida tavallud topgan. Musiqa sabog'ining ilk qadamlarida u dutor va nay



cholg'ularida mashq qila boshlaydi. Yosh iste'dod egasiga ustozlarning e'tibor berganligining sababi, uning xotirada saqlab qolish qobiliyati o'ta kuchli bo'lganligida edi. Darhaqiqat, u musiqiy asarni bir tinglashda boshidan to oxiragacha esida saqlab qoladigan darajadagi "quvvayi hofiza"ga ega bo'lgan. Bu uning saboq jarayonida o'zini namoyon etganligi manbalarda bayon etilgan. Yosh Yunusbek bog' qo'shnisi bo'lgan andijonlik Mirzaqosim hofizdan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga mansub ashulalarni, xalq orasida mashhur maqom namunalari eshitib o'zlashtirib boradi. Yosh iste'dod egasi ana shu tariqa tinglovchilar davralariga kirib boradi. Shu paytlarda xalqimizning sevimli asarlariga aylangan "Ajam", "Eshvoy", "Kurd" kabi qātor kuylarni ijro etadi. Musiqa olamiga sozanda sifatida kirib kelgan va xonandalikdan xabari bo'lgan Yunus Rajabiy o'z davrining dongdor hofizlari nazariga tushadi. Mulla To'ychi hofiz Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov kabi musiqa bilimdonlari va mohir xonandalarining e'tiborini qozonadi va katta san'at dargohiga qadam qo'yadi. Uning shakllanish davrida ustozlar nazariga tushgan muhim jihatlaridan biri, Yunus shogird bo'lib ustozlarining mehrini qozongan, ustozlari o'gitiga amal qilib ulardan unumli foydalangan. Yunus Rajabiy 1919-yili Toshkentda tashkil topgan "Turkiston xalq konservatoriyasi"da ta'lim oladi. 1923-yili esa o'qishni bitirib, akasi Rizxi Rajabiy, Imomjon Ikromov va Ismat changchilar bilan Samarqand bilim yurti qoshida ochilgan musiqa maktabida muallimlik qiladi. Samarqandda mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan saboq oladi. "Shashmaqom" ijrochiligini, Samarqandga xos ashula yo'llarini o'zlashtiradi. Xususan, "Buzruk", "Iroq" va uning taronalarini, "Ushshoq" va uning barcha namunalari, "Guluzorim", "Bebokcha", "Bozurgoniy", "Gullar bog'i" kabi ustozning asarlarini, "Shashmaqom"ning bir qator qismlarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Mana shu davrdan boshlab ustozlarning sabog'i va hamkorlikdagi faoliyati asosida uning bastakorlik ijodi boshlanadi. Avvaliga xalq musiqalarini moslashtirish va qayta ishlash usullarini maromiga yetkazib bajaradi. 1925-1926-yillari Samarqand musiqali teatrida musiqa rahbari bo'lib faoliyat olib borish jarayonida, "Abulfayzxon", "Yorqinoy", "Padarkush" spektakllarini musiqalar bilan bezab, ijro etishga muyassar bo'ladi. 1926-yili "Layli va Majnun" (Sh. Xurshid pyesasi) dramasiga musiqa bastalaydi.

Yunus Rajabiy 1927-yildan endigina tashkil etilgan O'zbekiston radio qo'mitasida ish faoliyatini boshlaydi. Ansamblda Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Halim Ibodov, Imomjon Ikromov kabi bir qator zamonasining dongdor san'atkorlari faoliyat olib borganlar. Mana shu yillardan boshlab Yunus Rajabiyning sozanda va xonandalar ansambliga rahbarlik faoliyati boshlanadi. Bu, albatta, uning bastakorlik ijodini jonlantirishga sabab bo'ldi. Aynan shu davrda uning ilk asarlari, ya'ni "Chamanzor", "Yoshlar marshi", "Gulbog'lar" va "Yor ila" kabi bir qator kuy va ashulalari yaratiladi.

1930-yillarning ikkinchi yarmidan O'zbekiston san'ati va adabiyoti kunlari tez-tez tashkil etilib turila boshlandi. Bu esa o'zbek bastakorlarini yangi asarlar yaratishga undardi. Ko'pchilik bastakorlar qatorida Y. Rajabiy ham shu davrlarda "Yor mehri" (A.Navoiy), "Muncha ham" (Muqimiy), "Hajringda" (Furqat), "Muhabbat dashti" kabi qo'shiqlarni yaratishga muyassar bo'ladi. Buning natijasida u 1938-yili O'zbekiston kompozitorlar uyushmasiga a'zolikka qabul qilinadi. 1939-yili esa unga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoni beriladi. Yunus Rajabiy 1927 yildan 1942 yilgacha va 1945–1953 yillar mobaynida O'zbekiston radiokomiteti qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari va ansambl rahbari, keyinchalik esa xalq cholg'ulari orkestri tashkilotchisi va badiiy rahbari lavozimlarida faoliyat olib boradi. 1955-yildan 1959-yillargacha davomida Yunus Rajabiy o'zining folklorshunoslik ilmda olib borgan ishlarini tarixga muhrlashga erishadi. Ya'ni 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla va laparlari, terma va dostonlaridan namunalarni hamda "Shashmaqom"ning nota namunalari besh jildidan iborat "O'zbek xalq musiqasi" kitoblarida nashr etadi. Xususan, musiqiy merosimizning aksariyat namunalari "O'zbek xalq musiqasi" kitobining 1–4-jildlarida o'z ifodasini topgan. Bujildlarning har biri uch ulkan bo'limlarda bayon etilgan bo'lib, birinchi bo'lim Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, maqom yo'llarida yaratilgan yirik cholg'u va ashula asarlarini qamrab olgan. Ikkinchi bo'limda voqelikka asoslangan, qadriyatlar, an'analar, xalq marosim kuy-qo'shiqlari va uchinchisida zamon bastakorlarining shu davrda yaratgan asarlari o'rin olgan. "O'zbek xalq musiqasi" kitobining 5-jildi o'zbek xalqining durdonasi bo'lgan "Shashmaqom"ga bag'ishlangan. Unda "Shashmaqom"ning cholg'u va ashula

bo'limlaridagi musiqiy namunalar, turkumlar to'la ifodasini topgan bo'lib, nota namunalarida zikr etilgan.

Yunus Rajabiy 1957-yildan yana O'zbekiston teleradiosida ish faoliyatini davom ettiradi. Avvaliga xalq cholg'ulari orkestrida badiiy rahbar, 1958-yildan maqomchilar ansambli qaytadan tiklanadi va 1976-yilgacha, ya'ni umrining oxirigacha ushbu ansamblga rahbarlik qiladi. U o'zbek mumtoz musiqa san'ati namoyandalariga rahnamolik qilib samarali faoliyat olib boradi. Ana shu yillar Yunus Rajabiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul davriga to'g'ri keladi.

Allomaning o'zbek musiqa san'ati rivojida olib borgan faoliyati qo'p qirrali ekanligini e'tirof etish lozimdir. Birinchidan, ijrochilik; ikkinchi yo'nalish – bastakorlik; uchinchisi–an'anaviy musiqa namunalarini notaga olish bilan bog'liq etnograf-musiqashunoslik; to'rtinchisi–maqom ansambliga rahbarlik; beshinchisi–o'zbek xalq va mumtoz musiqalarini maqomchilar ansambliga o'rgatib, magnit tasmlariga yozdirgan va meros qilib qoldirgan xazinabon; oltinchisi–betakror shogirdlarning kamolga yetishida rahnamolik qilgan mehribon ustoz, yettinchisi–musiqa ijrochiligi, ijodiyotida ibrat sifatida faoliyat olib borgan yagona akademikdir.

Yunus Rajabiyning bastakorlik ijodi rang-barangdir. Uning yaratgan asarlarida bu jihatlar yaqqol namoyon. Hazrat Navoiy asarlarida ushbu amal "Nag'mapardoz", "Lahnpardoz" kabi iboralar bilan keltirilgan. Allomaning ijodida ushbu yo'nalishning samarasi buyukdir. U bir qancha qadimiy o'zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan. Masalan, "Subhidam", "Yolg'iz", "Sayqal", "Fig'on", "Oraz", "Begi Sulton" va shu kabilar.

Yunus Rajabiyning bastakorlikdagi o'ziga xos uslubi o'zining mumtozligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, xalq musiqa merosi bilimdonlari, ularning ijrochilik an'analari mukammal egallagan sozanda va xonandalar bastakorlikka qo'l uradilar. Maqom bilimdoni Yunus Rajabiy ham o'zining musiqa sohasidagi ko'p yillik tajriba, bilim va ko'nikmalarini bastakorlik orqali ijod etgan buyuk ijodkorlardandir. Ahamiyatli tomoni, u xalq bastakorligi va kompozitorlik yo'nalishlarida betakror asarlar yaratishga muvaffaq bo'ladi. 100 dan ortiq asarlar yaratgan ijodkorning kuy va ashulalarida, maqom an'analari, vohaviy xususiyatlar, mavzuli, shakliy va usul jihatlari mumtozona uyg'unlashganligi kuzatiladi. "Qadah", "Ne navo soz aylagay",

"Ra'nolanmasun", "Koshki", "Kuygay" kabi musiqiy namunalar shular jumlasidandir. Musiqa ijodiyotida Yunus Rajabiy o'zbek musiqali drama janrining shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Dastlab "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Xolisxon", "Rustam" kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan. Keyinchalik B.Nadejdin bilan hamkorlikda 1941-yilda "Qasos", N. Mironov bilan 1942-yili "Qo'chqor Turdiyev", G. Mushel bilan 1943-yilda "Muqanna", O. Halimov bilan 1942-1943-yillarda "Nodira", B. Zeydman bilan 1964-yilda "O'g'il uylantirish", Sayfi Jalil bilan 1968-yili "Navoiy Astrobodda" singari musiqali dramalarni yaratgan. B. Nadejdin bilan "Segoh" va "Ufari Mushkiloti Segoh" simfonik asarini, B. Brovsin bilan birgalikda "Farg'onacha" simfonik syuitasini, T. Sodiqov, D. Zokirov, B. Zeydmanlar hamkorligida "Zaynab va Omon" operasini yaratgan.

1960-1966-yillar alloma ijodida "Shashmaqom"ni qayta yozish jarayoni bo'ladi. Davrning eng ilg'or sozanda va xonandalari bilan birgalikda "Shashmaqom" tarkibidagi har bir asar qaytadan o'rganilib, kamchiliklari, yetishmayotgan qismlari to'ldirilib ijro etilib magnit tasmlariga muhrlanadi. Ana shu asosida "Shashmaqom" nota yozuvining yangi varianti olti alohida kitob bo'lib nashr etiladi: I jild-"Buzruk", II-"Rost", III-"Navo", IV-"Dugoh", V-"Segoh", VI-"Iroq".

Yunus Rajabiy "Shashmaqom" ustida olib borgan ko'p yillik mehnati, ishlari va magnit tasmlariga yozib olish davomida rivojlanib borgan maqomlardagi ayrim o'zgarishlar va bu haqdagi fikrlarni "Musiqa merosimizga bir nazar" kitobida bayon etadi. Kitob 1978-yili nashr etilgan. Alloma "Shashmaqom" bu xalq mulki, hayoti ekanligini va u doimo jonli jarayonda bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Maqomlarni notaga olishdagi ilk davrlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarning ayrimlarini tuzatib ko'rsatib beradi. 2007-yili "Shashmaqom" to'plami Yunus Rajabiy yozuvida qaytadan UNESCO hamkorligida nashr etildi (Y. Rajabiy. "O'zbek maqomlari. Shashmaqom").

Yunus Rajabiy katta va tabarruk yo'lni bosib o'tgan, unumli va mazmundor hayot kechirgan, umr bo'yi xalqqa xizmat qilgan, kelajak avlodga bebaho xazina to'plab meros qilib qoldirgan zabardast ijodkordir.

Muxtor Ashrafiy - O'zbekiston xalq artisti, davlat mukofotlari sovrindori Muxtor Ashrafiy o'zbek musiqa san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Muxtor ashrafiy 1912-yilda Buxoroda tavallud topgan. Bolalik chog'laridan musiqaga mehr qo'ygan san'atkor ilk musiqa saboqlarini Buxoro sharq maktabida, so'ngra samarqand o'zbek musiqa va xoreografiya institutida, N.mironov rahbarligida kompozitorlik va dirijyorlik sohalarini o'zlashtirdi.



Muxtor Ashrafiy 1931-yildan boshlab, Toshkentdagi O'zbek musiqali drama teatrida rahbar va dirijyor lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Uning ijodiy faoliyati mana shu teatrdan namoyon bo'ldi. U 1939-yili ustozisi Vasilenko bilan hamkorlikda "Bo'ron" (birinchi o'zbek operasi) operasini yozdi. oradan bir yil o'tgach, uning ikkinchi operasi "Ulug' kanal" (S.Vasilenko bilan hamkorlikda) yaratildi.

Sermahsul ijodkor bo'lgan Muxtor Ashrafiy ijodiy faoliyati davomida 7 ta opera, baletlar, 3 ta musiqali drama, 2 ta simfoniya, 4 ta kantata, dramatik spektakl va kinofiimlarga musiqalar, qo'shiq va romanslar yaratdi.

Kompozitorning kantata, xor sadolarining yorqinligi, milliyliги bilan ajralib turadi. Uning "Kashmirda", "subhidam", "Jonim mening", kabi qo'shiq va romanslari obrazlarning rang-bamngligi, lirik kayfiyati bilan tinglovchilaning dilidan joy oldi. Uning simfonik asarlari mavzularining boyliги bilan ajralib turadi. Bu o'rinda kompozitorning "qahramonlik", "G'oliblarga shon sharaф" nomli simfoniyalari e'tiborga molik bo'lib, mazkur asarlarda o'zbek xalq musiqasining ohang va usullaridan keng foydalanganligi ko'zga tashlanadi.

Muxtor ashrafiy "Bayram uverturasi", "Tinchlik tarafdorlarining yurishi" kabi simfonik asarlari, "Ichkarida", "Mirzo Izzat Hindistonda" musiqali dramalari, "Dilorom", "Shoir qalbi" operalari, "sevgi tumori", "sevgi va qilich" baletlari, "opa-singil Rahmonovalar", "Semurg" kino musiqalar, "Hind kundaliklari", qator ocherklar va o'ndan ortiq adabiy va publitsistik maqolalar muallifidir.

Muxtor Ashrafiy 40 yildan ziyodroq vaqt mobaynida opera va simfonik musiqa dirijyori sifatida faoliyat olib bordi. U misr, Eron,

Hindiston, seylon kabi mamlakatlarda o'zbek san'atini namoyish etdi. Toshkent davlat konservatoriyasining maxsus dirijyorlik sinfi professori va shu oliy ta'lim muassasasining rektori bo'lgan muxtor ashrafiy o'zbekistonda tanilgan aksariyat dirijyorlarga ustozlik qilgan. Uning pedagogik faoliyati hamda serqirra ijodi yuksak baholanib, "Xalq artisti" fahriy unvoni, davlat mukofotlari, Jamol Abdul Nosir, Javoharlal Neru nomidagi mukofotlar bilan taqdirlandi.

Muhammadjon Mirzayev - Ustoz san'atkor, mohir sozanda, bastakor, O'zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev 1913-yil 13-avgustda Toshkent shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. U yoshlik chog'laridan musiqaga qattiq mehr qo'yadi. 1932-yili Toshkent to'qimachilik kombinatiga ishga kiradi va shu paytdan boshlab temiryo'lchilar klubi qoshidagi havaskorlik to'garagiga qatnashadi. To'garakda rus xalq cholg'ularidan mandolina sozida chalishni o'rganadi. 1936-yili O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan "O'zbek xalq cholg'ulari" ansamblida sozandalik faoliyatini boshlaydi. Ansambl badiiy rahbari To'xtasin Jalilov bilan bo'lgan muloqoti uning hayotida keskin burilish hosil qiladi.



Muhammadjon birinchi galda ansamblida o'z o'rnini topishga harakat qildi. Ansambl rahbari To'xtasin Jalilov taklifiga ko'ra qashg'ar rubobini o'zlashtirishga kirishadi. Qashg'arlik sozandalardan cholg'uni olib uni o'rganadi. Aslida uyg'urlarning qashg'ar rubobi keskin ovozli, pardalari diatonik uslubga va tanbur cholg'usi kabi dastasiga boylangan edi. Cholg'uning texnik jihatlari va tovushqator tizimlarini zamonaviy cholg'u talablariga moslashtirish maqsadida u toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovga murojaat etadi va birgalikda cholg'uni takomillashtirib, zamonaviy uslubda qayta ishlaydi. Ularning sa'y-harakatlari natijasida rubobning 7 bosqichli pardalari 12 pardali tovushqatorga moslashtirilib, boylanma pardalar mis pardalarga o'zgartiriladi. Pirovardida, har tomonlama mukammal cholg'u sozi paydo bo'ladi.

Qashg'ar rubobi aynan shu davrlardan boshlab xalq cholg'ulari qatoriga kirib keladi. Muhammadjon Mirzayev uni ijro amaliyotiga olib kirdi va jozibador tarannumini shaxsiy ijrosida namoyon etib berishga erishdi.

1942-yili front konsert brigadasi bilan konsert gastrollarini o'tkazadi. 1943-yili musiqali drama teatrining tashkil etilishi bilan Muhammadjon Mirzayev teatrning musiqa rahbari sifatida ishga taklif etiladi. Ushbu jamoada uning mustaqil bastakorlik ijodi boshlanadi. Uning ilk qo'shiqlaridan biri Akmal Po'lat so'zi bilan "Mehnat ahli" asari 1943-yili yosh sa'natkorlar Halima Nosirova, Zaynab Polvonova va Fotima Boru'xovalar tomonidan ijro etiladi. Bu, albatta, o'zbek san'atida unutilmas voqea bo'ldi. Eng avvalo, o'zbek bastakorlari qatoriga o'ziga xos ijodkor kirib keldi, ikkinchidan, katta ashula janrida zabardast ustozlar Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar rasm qila boshlagan katta ashula janrining yangi yo'nalishida yana bir o'ziga xos asar dunyoga keldi, uchinchidan, katta ashula o'zbek ayol ijrochilari tomonidan maromiga yetkazib ijro etildi. _

1946-yili u O'zbek davlat filarmoniyasiga ishga qaytadi, 1948–1953-yillarida Toshkent davlat konservatoriyasining "O'zbek xalq cholg'ulari" fakultetida qashg'ar rubobi sinfi bo'yicha o'qiydi. Muhammadjon Mirzayev sozanda sifatida rubob ijrochiligidagi o'ziga xos ijro uslubini yaratadi. Avvaliga yakkanavozlikda, keyinchalik o'g'li va shogirdi Shavkat Mirzayev bilan jo'rnavozlikda o'zbek shinavandalarini o'ziga rom etadi. Rubob cholg'usining keng ommalashishi va xalqning sevimli cholg'ulari qatoriga kirib kelishining yana bir sababi, Muhammadjon Mirzayevning bastakorlik ijodi edi. Chunki rubobning asl mohiyatini namoyon etadigan zamonaviy dilbar kuylar aynan Muhammadjon Mirzayev ijodida yaratila boshlandi. Uning ijodiga mansub "Gulnoz", "Intizor etma", "Dilbar", "Zavqim kelur", "Dildor I, II", "Orzu dil", "Dilrabo", "Tong", "Jonon", "Gilos" kabi rubob taronalari yaratildi. Ushbu asarlar o'zbek cholg'u kuylari sifatida o'zining originalligi, ohangining jozibaliligi, mavzusining rangbarangligi bilan xalq orasida keng ommalashdi.

Muhammadjon Mirzayev ijod etgan asarlari o'zining raqsboqligi bilan ajralib turadi. O'zbek raqs san'ati ijro repertuari uchun yaratgan asarlari, doimo o'zining yorqin jozibadorligi va o'ynoqiligi bilan

tinglovchilar olqishiga sazovor bo'lib kelgan. Bastakorning tanlagan mavzulari ham rang-barang. Ular ona Vatanni, aziz yurtini, go'zal tabiatni, baxtli hayotni, ishq-muhabbatni madh etuvchi kuylarni tashkil etgan. "Bahor valsi", "Qizlar valsi", "Orzu dil", "Dil kuylasin", "Go'zal Vatanim", "Shodlik", "Yor uchrashuvi", "Gulbahor va Tanavor", "Rohat" kuylari shular jumlasidandir. Uning yaratgan asarlarida vohaviylik, yakkaxon xonandalarga xos unsurlar go'zal uyg'unlashgan. Ijodiy faoliyati, asosan, ijodiy jamoalar bilan bog'liqligi sababli (masalan, jamoa yoki qatnashchilar uchun repertuar tanlashda) kunlik vaziyatga mos asarlar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Shu bois Muhammadjon Mirzayev davr san'atkorlari uchun kuy, qo'shiq va ashulalar yaratgan. Ular orasida taniqli xonanda Dilorom Qayumova ijro etgan "Uch dugona", "Ey, gul", "Oltin sandiq", "Popning popuk qizlariga", "Onalar" kabi qator qo'shiqlari o'zining yorqinligi, go'zal taronaga moyilligi bilan alohida ajralib turadi.

Bastakorning mumtoz uslubga xos bo'lgan ijodiy namunalari O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov bilan bog'liqligini qayd etish lozim. Chunonchi, Muhammadjon Mirzayev zabardast san'atkor, bilimdon bastakor sifatida ustoz Ma'murjon Uzoqov ijrosida butun Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati ijrochilik omillarini ko'ra bildi. O'zining bastakorlik ishlari doirasida o'z ashulalarini Farg'ona vodiysi ijrochilik an'analari bilan sug'orishga va alohida original asarlar yaratishga muyassar bo'ldi. Shu bois uning yaratgan ashulalari haligacha o'z mavqeyini saqlab yetuk hofizlar tomonidan ijro etib kelinadi. Uning Ma'murjon Uzoqov ijrosida mashhur bo'lgan yalla va ashulalari orasida – Muqimiy so'zlariga "Yakka bu Farg'onada", "Surating", "Yolg'iz", "Ayrilmasun"; Furqat so'ziga bastalangan "Yo'lingda", "Sho'xi jononim mening", "Qachon bo'lg'ay" va "Yor istab"; Sobir Abdulla so'zi bilan "Parvo etib kel", "Shahloga tushdi", "Ko'zlaring"; Hanifa Mavlonova ijrosida elga manzur bo'lgan, keyinchalik ommalashgan "Parvona bo'ldim", "Gulchehra yor", "Tong otguncha", "Husningga bu shaydoni" kabi o'nlab ashulalar o'zbek musiqa merosidan munosib o'rin oldi.

Muhammadjon Mirzayev o'zbek bastakorlik an'alarini munosib davom ettirgan, musiqiy merosga original asarlar bilan hissasini qo'shgan, ijrochilik amaliyotida yangicha cholg'u sozini kiritgan va ijrochiligini an'anaga aylantirgan zabardast san'atkordir. Uning ijrochilik va ijodiy merosi hozirgi davrgacha alohida o'ringa ega. Avvalo, u qashg'ar rubobi ijrochiligi bo'yicha sozandalarning rahnamosi hamda ijrochilik maktabining asoschisi sifatida tilga olinadi. Qolaversa, xalqimizning

milliy ruhiyati, ma'naviyatini in'ikos etuvchi betakror kuy va qo'shiqlar yaratgan ijodkor ko'rinishida kelajak avlod bastakorlari uchun ibratdir. Uning yaratgan asarlarida o'zbekona nafasat go'zalligi, joziba, tabiat bilan hamohanglik, hayotga bo'lgan mehr-muhabbat ifori barq urib turadi. Uning ijodini har qancha e'tirof etsa arziydi.

Muhammadjon Mirzayev rubob ijrochiligidan alohida ijro maktabini yaratgan va munosib shogirdlar tarbiyalagan, musiqa merosimizni ko'pdan ko'p (300 dan ortiq) betakror kuy, qo'shiq va ashulalar bilan boyitgan zabardast bastakor, betakror san'atkordir. Uning musiqiy merosi o'zining ko'p jihatlilik, purma'noligi bilan ahamiyatlidir.

G'anijon Toshmatov G'anijon Toshmatov o'zbek bastakorlik san'atining yorqin namoyandalaridan biri, Andijon musiqa maktabining vakili, O'zbekiston xalq artisti, mohir sozanda, zukko askiyachi, jamoat arbobi hamda zabardast bastakor. O'z ijrochilik va ijodiy faoliyati bilan o'zbek musiqa san'atida yorqin iz qoldirgan 100 dan ortiq kuy va qo'shiqlar muallifi.

G'anijon Toshmatov 1913 yil 22 iyunda Andijon viloyatining Asaka tumanida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi oddiy dehqon bo'lishiga qaramay, san'at shaydosi edi va dutor cholg'usining mohir ijrochisi bo'lgan. Yoshligidan musiqiy muhitda tarbiyalangan va musiqaga mehr qo'ygan yosh G'anijon musiqa ijrochiligi borasidagi ilk saboqlarni otasidan oladi. Otasining do'stlari, zamonasining mohir sozandolari Karimsher, Muhammadali va Abdullalardan musiqaning ijrochilik sirlarini o'zlashtira boshlaydi. Musiqaga oshufta qalb egasini shu davr cholg'u musiqasi o'ziga sehlagan edi. Uning sozandalik san'atiga qiziqishi Andijonning mashhur g'ijjakchi sozandalaridan biri, ko'p shogirdlar tarbiyalagan, g'ijjak ijrochiligidan o'ziga xos ijro uslubiga ega bo'lgan ustoz san'atkor Sobirjon Siddiqov dargohiga yetaklaydi. Ustozga e'tiqod bilan shogirdlikka tushadi va 20-yillardan boshlab ustozning rahnamoligida cholg'u ijrochilik san'ati sirlarini o'rganib boradi.

XX asrning 20–30-yillari sozandalik san'ati rivojlanish bosqichining boshlanish davriga to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab 20-yillardan Farg'ona vodiysi va Toshkentda sozandalar ansambllari shakllanib, faoliyat yurita boshlangan. G'anijon Toshmatov ustozining rahnamoligida sozandalik amaliyoti va musiqa merosi namunalari

qunt bilan o'zlashtiradi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi cholg'u yo'llarini, ya'ni surnay ijro yo'llarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Farg'ona-Toshkent cholg'u yo'llari o'zining ko'p jihatligi, mavzularga boyligi, namunalarining seroblighi bilan musiqiy merosda alohida o'rin tutib kelgan. Cholg'u kuylari oddiy xalq musiqa namunalaridan mumtoz namunalarigacha alohida va turkumli shaklda ijod etilib, rivojlanib kelgan. G'anijon Toshmatov shu paytlarda musiqiy merosni o'rganishga katta e'tibor qaratadi. Ustozlar an'anasida mavjud bo'lgan ijro yo'llarini alohida qunt bilan o'rganadi va ijro repertuarida mukammal talqin etishga harakat qiladi. Uning ijro repertuarida "Mirzadavlat", "Yalang Davron", Farg'onaning "Ushshoq" yo'llari, "Nisor", surnay yo'llaridan "Surnay Buzrugi", "Surnay Segohi", "Farg'ona Buzrugi" kabi bir qator vodiy cholg'u yo'llariga xos original asarlar keng o'rin oladi. Bu meros namunalari keyinchalik G'anijon Toshmatovning bastakorlik ijodiyotiga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Ustozlar an'ansi, qadimiy musiqiy namunalarning mavzu, ohang va shakliy ta'siri o'ziga xos ifodasini topadi.

U 1932-yili Andijon davlat musiqali drama teatri qoshidagi sozandalar ansambliga g'ijjakchi sozanda bo'lib ishga kiradi. Mana shu davrdan boshlab G'anijon Toshmatovning juda ham sarmazmun faoliyati boshlanadi. Buning asosiy sababi, o'zbek musiqa merosining betakrorligi va turli-tuman janrlarga boy namunalarning maftunkorlik jihatlari bo'lgan bo'lsa ajab emas. Chunki uning hayotida ijodiy munosabatlar bilan bog'liq jihatlar shakllana boshlaydi. Ijodiy jamoada ishlash, bu har bir sozanda-yu xonanda bilan hamkorlik qilish va birgalikda ijod etishdir. Bu jarayon G'anijon Toshmatovning shaxsiy munosabatlarida ijobiy natijalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Avvalo, u xalq ijodiyotining sozandalik, xonandalik, askiya kabi san'atlarning uyg'unlikdagi jozibasini talqin etdi va ustozlardan bu soha sirlarini bilib, o'zlashtirgan ko'nikmalarini amaliyotda namoyon etishga harakat qildi.

Aynan shu davrdan uning mashaqqatli mehnatni talab etadigan, sozandachilik va san'atkorlarga yo'l boshchilik faoliyati boshlanadi. Umrining oxirigacha bir maromda turli ijodiy jamoalar bilan ishlab, ijrochilik va ijodiy faoliyat olib borib, faoliyat samarasini ulkan yutuqlar ila namoyish etadi. U Farg'ona viloyati musiqali drama teatrida 1934-1939-yillar davomida, Toshkentdagi Muqimiy nomidagi

musiqali drama va komediya teatrida 1939–1946-yillarda ustozlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Zamon talabiga xos bir qator asarlar yaratib ijro etadi.

1946–1953-yillarda O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida sozanda bo'lib ishlaydi. 1953–1957-yillarda faoliyatini O'zbekiston davlat filarmoniyasida olib boradi. 1957-yili yana O'zbekiston radiosiga qaytadi; avval o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida (1957–1967) sozanda lavozimida ishlab, 1967-yili ansambl rahbarligi, ya'ni jamoaga rahnamolik faoliyati boshlanadi. Uyg'ur ansambliga (1978-yilgacha), 1978-yildan 1987-yilgacha kekxa san'at ustalaridan tashkil topgan Etnografik ansamblga rahbarlik qiladi. Bu ansamblidagi uning faoliyatining muhimligi shundan iboratki, ansamblning asosiy maqsadi unutilib borayotgan xalq musiqa namunalarini qaytadan tiklash va magnit tasmlarida yozib qoldirish edi. Sozandaning yakkaxon va ansambl ijrosida "Dugoh", "Segoh", "Nasri Segoh", surnay yo'llaridan "Buzruk", "Navro'zi ajam", "Surnay navosi", "O'yin Munojoti" kabi maqom yo'llariga xos asarlar yozib olingan va radioning oltin fondida saqlanib kelinadi.

1987–1988-yillarda Maqom ansamblida badiiy rahbar bo'lib ishlaydi. So'ng 1988-yildan umrining oxirigacha radio qoshidagi "Dutorchi qizlar" ansamblida o'zining ustozlik faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan birga o'zbek, tojik, uyg'ur xalq kuylarini qayta tiklab, yosh ijrochilarga o'rgatib, tinglovchilarga taqdim etadi.

Har bir san'atkorning musiqa san'atiga qo'shgan hissasi uning salohiyatiga va salobatiga asosdir. G'.Toshmatov o'zining ijodida musiqa san'atining bir qator yo'nalishlarida samarali ijod etdi. Mohir sozanda, xalq cholg'u kuylarining bilimdoni, zukko askiyachi, bastakor, bilimdon ustoz va jamoa rahbari sifatida o'zbek musiqa san'atini rivojiga ulkan hissa qo'shgan san'at namoyandasidir.

Sozandalikda G'anijon Toshmatov ustози Sobirjon Siddiqovning Andijon g'ijjak ijrochilik uslubini davom ettirib, boyitib, o'zining ijro uslubini yaratishga muyassar bo'lgan san'atkordir. Hozirda yosh sozandalar tomonidan ushbu uslub munosib davom etayotganligini qayd etish mumkin.

Mumtoz musiqa ijrochilik an'alarining muhim jihatlaridan biri bo'lgan o'tmish sozanda va xonandalarning an'alarini davom ettirish

borasida G'anijon Toshmatovning yutug'i, ustozlardan o'rgangan va avlodlardan o'tib kelayotgan xalq cholg'u kuyla rining bilimdoni sifatida e'tibor topdi. Xalqimizning merosidagi yallalar, qo'shiq va kuylarni yoshlarga o'rgatib, ko'pgina asarlarga qayta hayot baxsh etdi. U o'z davrining san'atkorlari tomonidan xalq kuylarining bilimdoni, ayniqsa, Fargona-Toshkent maqom yo'llarida yaratilgan cholg'u turkumlarining bilimdoni sifatida e'tirof etilgan. Bu uning keyingi ijodida o'zini namoyon etib, bastakorlik ijodiyotida o'z aksini topgan.

Farg'ona vodiysida ijod etgan yetuk xonanda va sozandalarning aksariyati mahalliy an'analarga ko'ra askiya san'atidan xabardor bo'lgan. Albatta, askiya san'ati uchun, insonda yetarli bilim, zukkolik, so'zga chechanlik va ustalik, badihaviylik mahorati bo'lishi talab etiladi. Musiqa san'ati amaliyotida, ustozlik darajasiga erishgan bir qator xonandalar, sozandalar va bastakorlar, albatta, zehn-zakovatda zukko ekanliklarini namoyon etib, askiyachi nomini ham olganlar. G'anijon Toshmatov ham o'z davrining so'zomon kishilaridan bo'lib, askiya san'atida davr namoyandalarining safida turib faoliyat olib borgan. U o'z ijodiy faoliyatida Mamatbuva Sattorov, Hamroqul qori, Jo'raxon Sultonov, Yusuf Qori kabi ustoz san'atkorlar bilan bir davralarda chiqishlar qilib askiyachilik san'atida el nazariga tushgan mohir askiyachi bo'lgan.

G'anijon Toshmatovning eng samarali faoliyati – bastakorlikda mujassam topgan. Hayoti davomida musiqa ijodiyotining turli shakl-u shamoyilga asoslangan 200 dan ortiq kuy, qo'shiq va ashulalar yaratgan. Ular orasida maqom yo'llariga xos ashulalardan tortib oddiy cholg'u kuylarigacha asarlar ijod etgan.

Ushbu sohada G'anijon Toshmatovning ikki yo'nalishga xos bastakorlik faoliyati kuzatiladi: a) xalq kuylarini qayta ishlash va b) bastakorlik. Yaratilgan har bir asarlarning zamonaga xos shaklga egaligi, an'analarga tayangan holda va yangi ohanglarning mosligi yaqqol namoyondir. "Segoh", "Yor-yor", "Omon yor" kabi ko'pdan ko'p xalq yo'llariga mansub asarlarni qayta ishlab, yangicha tus, hayot baxsh etadigan namunalarga aylantirgan. G'anijon Toshmatov ijodining eng e'tiborga loyiq qismi – bu asl ohanglarda yaratgan asarlaridir. "Olmaydi xabar", "Yurtim mehri" (V. Sa'dulla so'zi), "Mubtaloman" (Y. Mamatxonov she'ri), "Menga mehribon o'ldi" (Huvaydo g'azali), "Istar"

(S. Abdulla so'zi), "Guljamol" (Bobur g'azali), "Kezarman" (Navoiy g'azali), "Istadim" kabi musiqa namunalari xalqimiz tomonidan e'tirof etilib, mumtoz badiiy merosimiz tarkibidan o'rin olgan. Bular bastakorning o'z uslubini yorqin ifoda etadigan sara asarlar hisoblanadi. Bastakorning har bir yaratgan kuy va qo'shiqlari xalqonaligi bilan ajralib turadi.

Bastakorlik an'alarining kasbiylik jihati, ijodkorlarning bilimliligini in'ikos etib turadi. Bastakorlik an'alarida yuzaga kelgan maqomlar va maqom yo'llariga xos asarlar o'zining shaklan va tarkiban mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu yo'nalishda ijod etish uchun maqomlarning nazariy jihatlarini idroklash juda muhimdir. G'anijon Toshmatov asarlarining shu jihatdan mutanosiblikka xosligi begumondir. Maqomlar va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini yaxshi bilgan, bilimdon bastakor o'z asarlarini an'anaga asoslab yaratgan.

Odatda, bastakorlik ijodiyoti, xalq ijodi namunalarining shaxsiy uslubda qayta ishlangan variantidir. Shuning uchun uning shakl-u shamoyili va uslublari ko'pdir. Xususan, bular maqom ijodiyotida toki xalqona qo'shiqlargacha bastakorlik an'anasida munosib o'rin egallagan.

G'anijon Toshmatov 100 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratgan. Har bir asar zamonasiga mos, an'anaviy tarzda yangicha ohanglar bilan boyigan. Bastakor ko'proq uch uslubda ijod qilganligi e'tirof etiladi. Birinchidan - xalq yo'llaridagi asarlarni qayta ishlash; jumladan, "Segoh", "Yor-yor", "Omon yor". Ikkinchisi - yuqori pardalardan boshlanadigan ijod namunalari. Uchinchisi - original asarlar, "Guljamol", "Kezarman", "Istadim" va h.k.

Avvalo, asar bastakorlar an'anasiga xos muayyan ovoz va ijro uchun yaratilgan. Uning zaminida Kommuna Ismoilovanning ijro xususiyatlari inobatga olingan. Qo'shiq "Yor-yor"lar yo'lida yaratilgan, o'zining betakror ohangi bilan ajralib turadi. Ohangda iliq murojaat, yoqimli intizorlik hislari mavjuddir. Uning talqini jarayonida ohangdagi o'ziga xos savol-javob harakatlarini ham ko'rsatishga intilishi seziladi. Bu ijroga joziba baxsh etadi. Mavzu ohanglarini avj pardalardan boshlanishining ham sababi shundadir. Ijroda bunga e'tibor qaratish muhim sanaladi.

Komiljon Jabborov - O'zbek xalq bastakorlaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, cholg'u ijrochiligida o'z ijro uslubini yaratgan betakror sozanda, mohir bastakor **Komiljon Jabborov** Farg'ona vodiysining Andijon shahrida 1914-yilning 15-aprelida oddiy mehnatkash oilasida tavallud topgan. Musiqa savodini chang va g'ijjak cholg'ularida Farg'ona vodiysi ijrochilik an'alarining bilimdoni, namanganlik ustoz san'atkor Usta Ro'zimat Isaboyevdan o'rganadi. Shundan so'ng Komiljon bir qator zamonasining mohir sozandalaridan cholg'u ijrochilik sirlarini o'rganishni davom ettiradi. Xususan, andijonlik mohir sozandalar Sobirjon Sodiqovdan g'ijjak ijrochiligini, Muhiddin Qori Najmiddinovdan dutor ijrochilik sirlarini o'rganib o'z bilimlarini mustahkamlaydi.



Komiljon Jabborovning mustaqil sozandalik hayoti 1930-yillarda ustoz san'atkor To'xtasin Jalilov rahbarligidagi "Milliy musiqa to'garagi"da boshlanadi. 1931-yildan Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida sozanda sifatida ishlaydi. Teatrdagi olib borgan faoliyati davomida u sahnalashtirilgan spektakllarning musiqalarini tanlab, aktyorlar bilan birga mashg'ulotlar o'tkazardi. Shu jarayon uni ijod qilishga undaydi. Shu paytda "Gulsara", "Layli va Majnun" kabi spektakllar Andijon teatrida sahnalashtirildi. Bastakor o'zining ilk ijod namunalarini yozadi. Shoir Sobir Abdulla so'ziga yozgan ilk "Chayqalur" qo'shig'i ustozlarining sabog'iga mos, o'ziga xos shakl va mazmun jihatlaridan o'zbek mumtoz musiqasi yo'llariga xosligi namoyon edi.

1941-yil boshida Komiljon Jabborov Yangiyo'lda tashkil etilgan musiqali drama teatriga ishga taklif etiladi. Bu yerda u zamonasining eng yetuk san'atkorlari, xonanda va sozandalari bilan birga faoliyat yuritadi. Jumladan, T. Jalilov, J. Sultonov, X. To'xtasinov, M. Murtazoyev, S. Abdulla va boshqalar. Ushbu jamoadagi faoliyati, ijro jarayoni va ijodiy muloqotlar, shu bilan birga mashhur rus kompozitori Shteynberg bilan bo'lgan hamkorlik Komiljon Jabborovning bastakorlikdagi ilmini oshiradi va yangidan yangi asarlar yaratishga qanot baxsh etadi.

Bastakor ijodi davomida bir qator musiqali dramalar, oratoriya, simfonik asarlar yaratishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, Komiljon Jabborov bastakor va kompozitor sifatidagi mukammal asarlarni yaratadi.

1947-yildan Komiljon Jabborov O'zbekiston radiosi qoshidagi milliy cholg'ular orkestrida ish faoliyatini davom ettiradi. Bu dargohda u umrining oxirigacha g'ijjakchi sozanda sifatida ish olib boradi.

Darhaqiqat, Komiljon Jabborov o'zbek musiqa ijodiyotida original asarlar yaratgan bastakor sifatida e'tirof etilgan. Uning yaratgan har bir asari shakli, mazmuni, yo'nalishi, ohang mavzulari va albatta, ijrodagi jozibasini ta'minlovchi xususiyatga ega ekanligini qayd etish lozimdir. Bastakor ijodiy faoliyati davomida 100 dan ortiq kuy, qo'shiqlar va ashulalar, zamonaviy janrlarda asarlar yaratadi. Bastakorning o'z uslubiga egaligi uning yaratgan kuylarida va ashulalarida o'z ifodasini topgan.

O'zining ilk ijodini Komiljon Jabborov 1930 yillarning ikkinchi yarmidan boshlagan. Avvaliga xalq qo'shiqchiligi janriga e'tiborli bo'lib, ularning sir-u sinoatlarini anglar, shunga o'xshash asarlar yarata boshlagan. "Ko'zlaring", "Ey, pari", "Xush kelding" kabi qo'shiqlari aynan xalq ijodiyoti ohanglariga xosligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy kamoloti uchun ushbu yillar juda katta ibratli maktab sifatida muhrlanganligini qayd etish joiz. Avvalo, o'zbek musiqa darg'alari bilan har tomonlama faoliyat olib borish bo'lsa, ikkinchi tomondan professional musiqa ijodiyoti namoyandalarining faoliyati bilan tanishish bo'ldi. 1941-yildan professional kompozitorlar bilan hamkorlikda ijod etib, musiqa ijodiyotining ushbu yo'nalishini ham Leningrad konservatoriyasining namoyandalaridan M.Shteynberg, A. Kozlovskiy va bir qator rus kompozitorlarining ham ta'limini olishga va birga hamkorlik qilishga moyassar bo'ladi.

O'zbek bastakorlarining XX-asrning 30-40-yillardagi rus kompozitorlari bilan hamkorligi o'zbek musiqasi uchun yangi yo'nalishdagi bir qator musiqiy-sahnaviy asarlar, simfonik asarlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Avvalo, bastakorlarning kompozitorlik yo'nalishini egallashlari, bu yo'nalishda o'zbekona asarlarning yaratilishiga olib keldi. Hamkorlikdagi ijod asosida yaratilgan ilk asarlar, asosan, xalq musiqa ijodiyotiga, ya'ni folklor va mumtoz musiqa namunalari asoslanganligini qayd etish lozimdir. Ko'p hollarda

bastakorlar avvaliga musiqa tanlovchi va moslashtiruvchi sifatida jarayonga kirib keladilar. Bu ishda Tolibjon Sodiqov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov kabi bastakorlar samarali faoliyat ko'rsatdilar. Bularning qatorida Komiljon Jabborov ham ushbu jarayonga o'z hissasini qo'shishga muvassar bo'ldi. Jumladan, taniqli san'atkor N. Salixov bilan birgalikda ilk bor "Layli va Majnun" musiqiy dramatik asarini 1938-yili yozadi. Kompozitorlar B. Arapov va A. Kozlovskiylar bilan birga "Jaloliddin Manguberdi" oratoriyasi yaratiladi. 1940-yillarda kompozitor M.Shteynberg, S.Kalonovlar hamkorligida "Simfoniya-rapsodiya" asari yaratiladi.

1950–1960-yillar bastakor ijodining samarali davriga to'g'ri keladi. Aynan musiqali drama janrida o'zbek kompozitorlari S.Hayitboyev bilan hamkorlikda "Nodira", D. Zokirov bilan "Mening jannatim" kabi asarlar yaratiladi. Bastakor zamonasining ruhiyatini, davr talabi doirasida tinglovchilarning maqsadi va talabiga xos bo'lgan jihatlarni o'z asarlarida in'ikos qilishga harakat qiladi. Shu bois, uning ijodi musiqiy meros an'analari zaminida meros namunalariga tayangan va mustaqil ijodga xos namunalardan tarkib topgan. Xarakter nuqtayi nazaridan lirik jihatlarni o'zida mujassam etgan asarlar uning ijodida asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, xalqimizning mehnat, ona diyor, Vatan tuyg'usi, ishq va muhabbat, e'tiqod va hurmat kabi xarakterli jihatlari ana shu lirik jarayonda o'z uyg'unligini topadi.

Komiljon Jabborovning ijodidan o'rin olgan asarlarning haqiqiy xalqchilligi, xalqimizga xarakterli bo'lgan mehnat jarayonlarini, ona diyorimizning o'ziga xosligi ohanglarda ifodalanishi bilan dilga yaqindir. Shu bois uning bir qator asarlari bir necha yillar davomida radio va televideniye to'lqinlari orqali doimiy ravishda yangrab turadigan radioeshittirishlari va teleko'rsatuvlarning ramziy ohanglari sifatida qo'llanilib kelingan. Zero, tinglovchi kuy ohanglarining o'zidan eshittirish yoki ko'rsatuv qaysi mavzuga bag'ishlanganligini ilg'ab olgan. Jumladan, davrining qishloq xo'jaligi mehnatkashlari – chorvadorlari uchun maxsus beriladigan kundalik eshittirish bastakorning "Diyorimsan" (Habibiy so'zi) qo'shig'ining kuyi bilan boshlangan. "Sihat-salomatlik" teleturkum ko'rsatuvlari "Shifokorlar" (P.Mo'min so'zi) qo'shig'i bilan yoki "Toshkent va toshkentliklar" radioeshittirishlari

hamda teleko'rsatuvlari "Toshkent piyolasi" (H. Xo'jayev so'zi) qo'shiq kuyi sadolari bilan boshlangan.

Bastakorlik ijodining ikki o'ziga xos xarakterli tomoni mavjud. Ijodining shakllanish jarayonida yetakchi ahamiyat kasb etgan-xalq musiqasi merosi namunalari va ohanglariga asoslangan asarlar. Ikkinchisi, milliy ohanglarda bastalangan original asarlar. Ularning mukammalligi o'zbek bastakorlik an'anasiga tayanganligida namoyon bo'ladi. Xususan, yaratilgan kuylarning har tomonlama mutanosibligi va mukammalligi Komiljon Jabborovning sozandalik san'atida ustoz ko'rgan, ustoz-shogird an'anasida tarbiyalangan va musiqiy merosni puxta idroklaganligining natijasidir. Shu bilan birga bastakor har bir asari uchun an'anaviy shaklda so'z tanlaydi. Bunda asosiy mezon uning uslubiga mosligidir. O'zbek klassik shoirlarining mumtoz she'riyati – Alisher Navoiy, Lutfiy, Muqimiy, Furqat, Uvaysiy, Nodiralarning ijodiga, zamonamizning ilg'or shoirlarining ona diyorni madh etuvchi, Vatanni sevis, ardoqlash va unga munosib holda xizmat qilish muqaddasligi, xalqimizning boy ma'naviy dunyosi, betakror qadriyatlari va an'analari davom ettiruvchi, yoshlarni kamolot sari undovchi hislarini uyg'otuvchi matnlarga murojaat etadi.

O'zbek mumtoz musiqasi uslubida yaratilgan "Senga", "Gul bargi", "Ey pari", "Muhtalo bo'ldim senga" kabi Alisher Navoiy g'azallariga yozilgan lirik ashulalar; Fuzuliy g'azaliga "Yetmasmidim", Uvaysiy so'zi bilan "Tokay", Muqimiy so'zi bilan "Assalom", Lutfiy so'zi bilan "Bu ko'ngil", Nodira she'rlariga "Dildagi rozi", "Yalla", Habibiy so'zlari bilan "Jonon bo'lur", "Taklifnoma", "Mehnat taronasi", "Xush keldi", "Diyorimsan", "Mumtoz etgali keldik", "Yaxshiroq" kabi lirik ashulalar o'zining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Bastakorning aynan mana shu lirik uslubda yaratgan ashulalari, avvalo, mumtoz bastakorlik an'analari davom ettirgan har bir mumtoz xonanda va sozandalarning ijro repertuaridan o'rin olgan. Ushbu asarlar o'zining shakl jihatidan, mavzu va uning rivoji, mumtozlik tarkibiy tuzilishi, lad va metro-ritmik asoslari bilan mumtoz musiqa namunalari an'analari asosida yaratilgan. Bunga yorqin misol "Yetmasmidim" ashulasidir.

Komiljon Jabborovning ushbu asari Fuzuliyning "Yetmasmidim" radifli g'azaliga yozilgan. Ashula janriga mansub bo'lgan ushbu asar, maqomlarga xos tarkibiy tuzilmaga egadir. Uning ichki tarkibiy

qismlarining ketma-ketligi, maqomlarga xos rivojlanuvchi drammatizmni hosil qilib beradi. Ashula keng diapazoni, original mavzu, sokin usul negizida lirik uyg'unlikni ta'minlab beradi. Eng muhimi, avjlar tizimi va asarning dramatik holatini ta'minlab beruvchi xususiyatga egaligini e'tirof etish lozimdir.

Faxriddin Sodiqov - Ustoz san'atkor, mohir sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov 1914-yilning 13-may kuni Toshkent shahrida tug'ilgan. Yoshligidan dutor va chang cholg'u ijrochiligi sirlarini o'rgangan. Ustozlari "Nug'mon qori Mo'minzoda va Abdusoat Vahobovlar bo'lishgan. Toshkent musiqa texnikumida tahsil olib, uni 1933-yili tugatgan. O'zining ijrochilik faoliyatini 1930-yillardan boshlagan. Ijrochilik faoliyatini avvaliga to'garak rahbari, so'ng yakkanavoz, ansambl sozandasi sifatida olib boradi. 1931-1935-yillar davomida O'zbek davlat



musiqali teatrida, 1935-1938-yillarda O'zbekiston davlat filarmoniyasida sozanda bo'lib ishlaydi. 1939-yili Lutfixonim Sarimsoqova va Yunus Rajabiylar rahnamoligida dutorchilar ansamblida faoliyat yuritadi. 1942-1945-yillarda Gavhar Rahimova rahbarligidagi konsert brigadasida musiqa rahbari lavozimida ishlaydi. 1946-1952-yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida chang sinfi bo'yicha saboq oladi.

Faxriddin Sodiqov musiqa merosi sir-u sinoatlarini yaxshi idroklash zaminida, musiqa ijodiyotiga ham qadam qo'yadi. Ijodiy jamoalarda faoliyat olib borish jarayonida uning ilk bastakorlik amallari yuzaga keladi. Faxriddin Sodiqov juda zehni o'tkir, zukko sozanda bo'lgan. Xonandalarning ichki tabiati, ovoz imkoniyatlari va ijrochilik tajribalari negizida xonandaga mos asarlar yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Faxriddin Sodiqov 1947-1953, 1957-1961-yillarda O'zbekiston Radiokomiteti xalq cholg'u ansamblida changchi, 1953-1957-yillarda O'zbek estrada ansambli, 1961-yildan O'zbekiston radiosi qoshidagi maqom ansamblida musiqa rahbari sifatida ishlaydi.

Ijrochilik va bastakorlik ijodini Faxriddin Sodiqov 1972-yildan boshlab pedagogik faoliyat bilan birga olib boradi. U Toshkent davlat konservatoriyasi qoshida tashkil etilgan "Sharq musiqasi" kafedrasida ish boshlaydi. Ushbu dargohda u chang, dutor cholg'ulari hamda maqom ansambli bo'yicha talabalarga maqom ijrochilik san'atidan saboq beradi.

Faxriddin Sodiqov bastakor sifatida zamonasining ilg'or bastakorlari va kompozitorlari bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qiladi. U kompozitorlar B. Giyenko bilan "Ota o'g'li" (H. Sharipov pyesasi), S. Hayitboyev bilan "Sulton larzada" (V. Sa'dulla pyesasi) kabi musiqali dramalar, bastakor G. Toshmatov bilan hamkorlikda "Yangi Toshkent" syuitasi kabi yirik musiqa asarlarini yaratdi.

Faxriddin Sodiqov, avvalo, zabardast bastakordir. Uning ijodida qo'shiq janri alohida o'rin tutadi. Qo'shiqlarining aksariyati xalqona uslubda, qo'shiq, ashula va yalla shakllarida yozilgan. Bular: "Yurgil lola sayliga", "Jonim tasadduq", "Zuhraga", "Parvonasiman", "Vafodor", "Loaqal", "Ulug' ayyom", "Ishq", "Jonon ko'rinur", "Savti miskin", "Sog'inish", "Qora ko'z", "O'zbekistonim mening", "O'zbek _ valsi", "O'zbekiston", "Favvora", "Turnalar", "Zulayho bo'lsang", "Subhidam", "Yangi yil taronasi", "Kechar yillar", "Ona", "Bir go'zal", "Shirmonoy", "O'yna gulim", "Baxt", "Hayosini ko'ring", "Zebixon", "Zulfing", "Suvchi qizga", "Shodiyona", "Ishqim tushdi yor-yor", "Guliston qil", "Oydin kechada", "Tushmasin", "Farzand quvonchi", "Saodatim", "Gul ishq", "To'yona", "Paxtakor ayol", "Barno yigit" va boshqalar.

Faxriddin Sodiqov o'zining sozandalik faoliyati va bastakorlik ijodi bilan o'zbek musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi. Ijrochilik amaliyotida esa har tomonlama mukammal, milliy an'analar bilan sug'orilgan o'ziga xos betakror ijro uslubini yaratdi. Uning yaratgan asarlarining o'ziga xosligi, ushbu uslubga mosligidadir. O'zbek bastakorlik ijodiyotida shu davrda yaratilgan musiqiy namunalar orasida Faxriddin Sodiqovning asarlari alohida ajralib turadi. Ijrochilik amaliyotida zamonga moslashib kelayotgan asarlar qatoridan o'rin olib kelmoqda.

Musiqa ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan "Ko'rsatmagan", "Bir go'zal border", "So'lim bahor", "Ey, sohibi dil", "Ey, chehrasi tobonim", "Zulayho bo'lsang" kabi bastakorning asarlari yuqorida zikr etgan fikrimizning dalilidir.

Saidjon Kalonov - O'zbek bastakorlik maktabining namoyandalaridan biri, atoqli sozanda va bastakor Saidjon Kalonov 1914-yilning 30-iyunida Farg'ona vodiysining Chust tumani Karkidon qishlog'ida tavallud topgan. Oddiy hunarmand oilasida tug'ilgan Saidjon yoshligidan nay sozini chalishni mashq qiladi. Avvaliga eski maktabda, so'ng XX asrning 20-yillaridan yangi maktabda boshlang'ich ta'limni oladi. Maktabda musiqa to'garagiga qatnashadi. 1925-yili Toshkentdagi musiqa texnikumiga o'qishga kiradi va sozandalik san'atini puxta egallaydi. Ushbu dargohda u zamonasining yetuk san'atkorlari Shorahim Shoumarov va Abdusoat Vahobovlar sinfida musiqa sirlarini o'zlashtiradi.

Taqdir taqozosi bilan 1927-yili ularning oilasi Toshkentga ko'chib o'tishadi. U Yunus Rajabiy tomonidan radio qoshida tashkil etilgan xalq cholg'ulari ansambliga naychi sozanda sifatida ishga kiradi.

Saidjon Kalonov tabiat bergan o'ziga xos iste'dod egasi edi. Uning nay cholg'u sozining ijrochiligidagi ansamblda ishlashi, texnikumda muallimlardan saboq olishi nafaqat saboq davri, balki ustozlarning an'anasini egallashida asosiy maktab sifatida xizmat qiladi. Nay cholg'usining ijrosi uchun sozandalarda bir qator tabiiy iste'dod va imkoniyatlar bo'lishi talab etiladi. Saidjon Kalonov ustozlar rahnamoligida aynan ustoz-shogird maktabini o'tashga muvaffaq bo'ladi. Ustozlar Abduqodir Ismoilov, Yunus Rajabiy va To'xtasin Jalilovlarning sabog'idan, nafaqat soz ijrochilik san'ati, balki boy musiqiy meros namunalarini o'zlashtirishga harakat qiladi.

Saidjon Kalonovning saboq jarayonidagi eng muhim jihat ham ana shu ustozlarning sabog'ida muhrlangan edi. Qolaversa, radio qoshidagi ansamblda Mulla To'ychi Toshmuhamedov kabi ustozlar bilan birga Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov, G'anijon Toshmatov kabi zamonasining mohir san'atkorlari bilan faoliyat olib borgan Saidjon Kalonov faoliyatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Musiqa texnikumini bitirganidan so'ng Samarqand musiqa va xoreografiya institutida ikki yil davomida taniqli naychi, ustoz san'atkor Abduqodir Ismoilovning ta'limini oladi.

1932-yili faoliyatini Farg'ona viloyati musiqali drama teatri qoshidagi musiqa ansambliga musiqa rahbari sifatida boshlaydi. Jamoa bilan ishlash, teatr repertuaridan o'rin olgan musiqali dramalarga

musiqalar tanlashning amaliyoti uning har tomonlama ijodini sinab ko'rish imkoniyatini yaratdi. Jamoa bilan ishlash jarayonida u musiqa ijodiyotining bir qator yo'nalishlarida o'zini sinab ko'rishga intiladi.

Saidjon Kalonov teatrdan sahnalashtirilgan spektakllar uchun musiqalar tanlagan va ularni maromida ijro etish uchun jamoani boshqaradi. Jumladan, "Farhod va Shirin" musiqali spektakliga musiqalar tanlaydi va bir qator kuy va qo'shiqlar bastalaydi. Saidjon Kalonov bastakorlik ijodining ilk uchqunlari ayni shu teatrdan namoyon bo'la boshlaydi.

1936-yili Toshkentda O'zbekiston davlat filarmoniyasi tashkil etiladi. Saidjon Kalonov To'xtasin Jalilov rahbarligidagi ansamblda naychi sozanda sifatida faoliyatini davom ettiradi. Shu davrdan boshlab, o'zbek musiqa ijodiyotida yangi uslub shakllana boshlaydi. Musiqa ijodiyotida ham o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan asarlar yaratish zamon talabiga aylanadi. O'zbek bastakorlik ijodiyotida keskin burilish hosil bo'lganligini ko'rish mumkin. Ya'ni an'anaviy (maqom va maqom yo'llaridagi) musiqa ijodi emas, balki yangi zamonni madh etuvchi tantanavor qo'shiqlar yaratila boshlandi. Shu bilan birga, Yevropa musiqa ijodiyotida keng ommalashgan kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu, albatta, davr taqozosi edi.

Shu tariqa Saidjon Kalonov O'zbek filarmoniyasi qoshidagi ansambllar tarkibida o'zbek san'atkorlari bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Saidjon Kalonov nafaqat sozanda sifatida, balki ansambl rahbari, ansamblni yangi asarlar bilan ta'minlab kelgan bastakor sifatida o'zini namoyon eta boshlaydi. Ayniqsa, Yangiyo'l teatri jamoasida ustoz san'atkorlar hamkorligidagi faoliyati davomida ancha mukammal asarlarni yaratishga muvaffaq bo'ladi. 1948-yildan umrining oxirigacha O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida ishlaydi.

Saidjon Kalonovning bastakorlik ijodi ijrochilik amaliyotida charxlangan, ustozlar uslublari va musiqiy merosni mukammal o'zlashtirganligi evaziga hamda iste'dodining mahsuli sifatida yuzaga keldi. Avvaliga davr taqozosi bilan vatanparvarlik ruhidagi asarlar, qolaversa, ishq-muhabbat mavzularida "O'zbekistondan salom", "G'alaba bilan qayt", "Vatan sevgisi", "Do'stlik jasorati", "Quyoshli o'lkam", "Gulmidi, ra'nomidi?", "Dilnavozim", "Visol gulshani", "Ey, sarvi ravon" kabi bir qator qo'shiqlarni yaratadi.

Bastakorning Navoiy so'ziga bastalagan "Ey, sarvi ravon", Muqimiy she'riga "Kuyla dilkash dutorim" kabi asarlari o'zining milliy-ma'naviy dunyosi bilan o'zbek xalqining qalb nidolarini kuylovchi, milliy an'analarini aks ettiruvchanligi bilan alohida e'tirof etiladi.

Har ikki asar ham musiqa ijrochiligi amaliyotining keng ommalashgan namunalariga aylanganligi, ularda mumtozlik xususiyati bilan zamonga moslashish jihatlari uyg'unligidan dalolatdir. Har ikki asar ham avvaliga qo'shiq janri xususiyatlari doirasida ijod etilgan. Ijro amaliyotida esa ularning keyingi rivojini kuzatish mumkin. Asarlar rivojlanib ashula shakliga xos xususiyatlar bilan sug'orilgan.

Bastakor teatrning taniqli dirijori Nabi Halilov bilan hamkorlikdagi "Muqanna" musiqali dramasiga musiqa yaratgan. Shu bilan birga, uning ijodidan munosib o'rin olgan xalq cholg'u orkestri uchun "Bahor armug'oni", chang va xalq cholg'u orkestri uchun "Pyesa", qashg'ar rubobi va orkestr uchun "Raqs" kabi bir qator xalq cholg'ulariga mo'ljallangan pyesalarni ko'rsatish mumkin. Bastakorning o'ziga xos uslubi soddaligi, maftunkorligi va originalligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini baland tembrli ovoz, xastalik xususiyatini beruvchi sadolar orqali ijro etish xarakterlidir. Tinglovchining qalbini ehtirosiga to'ldiruvchi, jo'shqinlik talab etuvchi bu asarlar xalqimizning betakror musiqiy namunalariga aylangan.

Sulaymon Yudakov - O'zbekiston xalq artisti, kompozitor Sulaymon Aleksandrovich Yudakov XX asr o'zbek musiqasi san'atini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. S.Yudakov 1916-yil 14-aprel qo'qon shahrida kambag'al kosib oilasida tug'ildi. U 7 yoshidan poyafzal tozalovchi bo'lib ishlaydi. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: "ishim yurishib, pul topadigan bo'ldim. Kunlardan bir kun qomati kelishgan, ovro'pacha kiyingan odam kelib o'tirib, etigini tozalattirdi va meni gapga soldi. Oilaviy ahvolimni va kechki maktabga endigina borganimni bilib, meni 1928-yili etim bolalar uyiga joylashtirdi. Menga otalik qilgan odamning ismi sharifini surishtirsam, Hamza ekan".



S.Yudakov bolalar uyida damli cholg'u asboblar orkestriga qatnashib, fleyta chalishni o'iganadi. 1932-yili Moskva davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqa "Rabfak"ni fleyta sinfiga o'qishga kirdi. 1934-yilda "Rabfak" bekilib, konservatoriya qoshida moskva davlat musiqa texnikumi oehiladi. S.Yudakov mazkur texnikumning kompozitorlik bo'limiga o'qishga qabul qilinadi. Kompozitsiyadan avval m.mesnerda, so'ngra M.Gnesinda ta'lim oldi. 1938-yil texnikumni bitirganidan so'ng, R.Gliyer sinfiga kompozitsiyadan saboq oldi.

S.Yudakov 1941-yildan boshlab asosan, ijod bilan shug'ullanib, o'zbek musiqa madniyati rivojiga o'z hissasini qo'shdi. U yurt qahramoni Qo'chqor Turdiyevga bag'ishlab, "Do'stlar", "Oldinga bosing", "Chavandozlar qo'shig'i" kabi qo'shiqlar, "Xabibi tu manam" romansi, 1942-yil "Farzand" musiqali dramasi, torli kvartet uchun uchta pyesa, simfonik orkestr uchun "syuita" asarlarini yaratdi. 1941-42-yillarda ijod qilish bilan birga Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1943-44-yillarda Tojikiston filannoniyasida badiiy rahbar sifatida faoliyat olib bordi. Kompozitor Tojikiston davlat madhiyasining musiqasini ham yozgan.

1946-yilda u Toshkentga qaytib kelib, o'z ijodini davom ettirdi. Xor, yakkaxon, sirnfonik orkestr uchun "G'alaba" kantatasi, "Kuylama sohibjamol", "Guliston tepaliklarida", "Bulbul", "inezilya men bu yerdaman" kabi romanslari, A.Lohutiy so'ziga "Afsonayi dil", "Tasfiri tu" romanslari, skripka va fortepiano uchun "sharqpoemasi" shular jumlasidandir.

Kompozitor turli janrda ko'plab asarlar yaratdi. Uning skripka, violonchel va fortepiano uchun "syuita"si (1946), simfonik orkestr uchun "Tantanavor uverturasi" (1949), tor. U kvartet uchun "syuita"si (1949), simfonik orkestr uchun "Xorazmcha bayram marshi"(1951), "mirzacho'l" vokalsimfonik syuitasi (1951) "Tinchlik kabutari" syuitasi (1954), "mening Vatanim" kantatasi (1955), "muborakbod" kantatasi (1972), "o'zbekiston" yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun poema-kantatasi(1973), "G'alaba" oratoriyasi(1975) hamda bir qancha qo'shiqlari o'lkamizni zamonaviy musiqa san'atiga yana bir iste'dodli kompozitor kirib kelganidan darak bergan edi.

Kompozitor S.Yudakovga eng katta shuhrat keltirgan asari "Maysaraning ishi" nomli birinchi o'zbek komik operasi bo'ldi. 1958-yilda alisher Navoiy nomidagi (O'zbekiston davlat katta akademik opera va

balet teatrida sahna yuzini ko'rgan mazkur asar teatrning asosiy repertuatlaridan biri bo'lib, hozirga qadar ijro qilinmoqda.

Kompozitor 1997-yilda "Nasriddin afandining yoshligi" nomli birinchi komik baletni yaratdi, U R.Hamroyev va M.Melkumov bilan hamkorlikda "Oq yol" musiqali dramasini yozdi. "Furqat", "Gullar ochilganda", "Temirchi bayrog'i" kabi

kinofilmlarga ham musiqa bastalagan. U kamer-cholg'u ansambl va orkestrlariga ham asarlar yaratgan.

Kompozitor S.Yudakovning buyuk xizmatlari ordenlari, bir necha medallar bilan, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Mutal Burxonov - O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifi Mutal (Mutavakkil) Burhonov 1916-yil Buxoroda tug'ildi. Musiqadan ilk saboqni Samarqand musiqa va xoreografiya institutida, so'ngra Moskva shahrida, taniqli musiqa allomalaridan oldi. 1941-1942-yillarda Moskva mudofaasi ko'ngillilari safida bo'ldi, biroq sog'ligi yomonlashganligi sababli Toshkentga qaytib keldi. 1947-yildan yana o'qishni davom ettirib, 1949-yili Moskva konservatoriyasini bitirdi.



M.Burxonov ijodiy faoliyatini 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, o'zining "Ishqida", "Namedonam chi nom dorad", "Ey, bulbul", "Tabassum qilmading" kabi romanslarini yozdi. 1941-yilda Uyg'un va izzat sultonning "Alisher Navoiy" she'riy dramasiqa musiqa, 1942-yili T.sodiqov, T.Jalilov, M.Vaynbelg, A.Klumovlar bilan hamkorlikda "O'zbekiston qilichi" musiqali dramasiqa musiqa bastaladi. O'rta Osiyo xalq qo'shiqlarini o'zbek xalq cholg'u asboblari va jo'rsiz xor uchun qayta ishladi, bir qator bolalar qo'shiqlarini ham yozdi.

1947-yilda Temur Fattoh she'riga O'zbekiston davlat madhiyasi musiqasini yaratdi.

Kompozitor 50-yillarda "Bahor qushlari" nomli vokal poema, "Abu Ali ibn Sino" nomli simfonik syuita, "Alisher Navoiyga qasida" kabi asarlarini yaratdi. Uning turli janrlarda yaratgan asarlari, jo'rsiz xor uchun qayta

ishlagan sharq xalqlari kuylari, vokalsimfonik asarlari, kino musiqalari zamonaviy musiqa san'atimizning oltin xazinasidan o'rin oldi.

M.Burxonov quyidagi kinofilmlarga musiqa bastalagan: "Samolyotlar qo'nolmadi", "Maftuningman", I.Akbarov, M.leviyev bilan hamkorlikda "Orol baliqchilari", "Surayyo", "Boy ila xizmatchi" va boshqalar.

Kompozitor Mutal Burxonov mustaqillik yillarida ham katta g'ayrat bilan ijod qildi. 1991-yilda "Alisher Navoiy" nomli operasini, Abdurahmon Jomiy she'riga "Shir-u shakar" yangi qo'shig'ini, O'zbekiston davlat madhiyasi musiqasini, qatag'on yillarda shahid ketgan Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi elning asl farzandlari va o'zining akasi hamda amakilarining porloq xotiralariga bag'ishlangan "Abadiy xotira" rekviyem marsiyasini yaratdi.

U "O'zbekiston xalq artisti" fahriy unvoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston davlat mukofotlari sohibidir.

Komiljon Otaniyozov - Komiljon Otaniyozov-o'zbek xonandalik san'atida yorqin iz qoldirgan, o'z davrining zabardast san'atkori, mashhur ashulachisi, mohir sozandasi, bastakori va san'at arbobidir.

Komiljon Otaniyozov 1917-yilning 20-iyulida Shovotda, Bo'yrachi qishlog'ida tavallud topgan. Otasi-Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li o'z davrining eng ma'rifatli, o'qimishli kishilaridan



biri, onasi Anbarmomo musiqa shaydosi, adabiyotni yaxshi biladigan, shoirlikda ham muayyan yutuqlarga ega bo'lgan inson bo'lgan. Komillikka intiluvchi insonlarning yo'llari ham o'z sohalari kabi bo'lganidek, Komiljonning avlodi, uning yoshligi, o'smirligi va faoliyatining shakllanish davrlari bilimdon hamda mohir ustozlarning bisyorligi bilan uyg'un edi.

U boshlang'ich savodni qishlog'idagi maktabda oladi va 1932-yili Shovotda pionerlar uyi ochilishi bilan yosh iste'dod egasi Bo'yrachidan borib u yerga qatnashadi. So'ng O'rta maktabning 5-sinfiga qabul qilinadi. Tez orada Komiljonning zehni ko'rib u 6-sinfga o'tkaziladi. Darhaqiqat, Komiljonning ko'rgan va eshitganlarini esda saqlash ko'nikmasi juda kuchli, zehni o'tkir bo'lganligi sababli bilimini tez oshirishga muayassar bo'ldi.

Ushbu maktabda o'qituvchilardan biri Norin Yoqubov tomonidan 1934-yili sozanda va xonandalar ansambli tuziladi. Ushbu ansamblda Komiljonga Abdukarim Abdurahmonov ustozlik qiladi. U o'zbek xalq qo'shiqlarini, ayniqsa, Xorazm doston yo'llarini qunt bilan o'zlashtirar va uning ijrosiga katta mehr bilan yondashar edi. U qo'shiqlarni u dutor jo'rligida ijro etgan. Avvaliga ustozlariga o'xshatishga harakat qilib kuylar, keyinchalik har bir ijro etayotgan asariga ijodiy munosabat ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ovozi, ijrosi va ijro uslubining shakllanishiga zamin yaratadi.

Komiljon Otaniyozovning ulg'ayish davri benazir ustozlar nigohida o'tdi. Komiljonning musiqa san'atiga qilgan ilk qadamlari ham Xorazmning eng mohir ustozlari bilan o'tdi. Ustozlar ijrosidagi betakror dostonlar, Xorazm musiqasining sirli ohanglari, serjilo qo'shiqlari, suvora-yu naqshlari, maqomlari uni o'ziga maftun etib bo'lgan edi. U zamonasining ustozlari Matkarim Abdurahmonov, Madrahim (Sheroziy) Yoqubov, Qurbonnazar Abdullayev (Bolabaxshi)lardan musiqa sabog'ini, xalq qo'shiq va doston yo'llarini ijro etishni o'rgandi. O'ziga xos jozibali va sirli ovozga ega bo'lgan Komiljon xalq orasida yorqin kuylashi bilan tinglovchilar nazariga tusha boshladi.

Noyob iste'dod egasi bo'lgan Komiljon ustozlardan avvaliga doston ijrochiligini o'zlashtiradi. Ijro repertuari shu davr san'atkorlariga xos tarzda shakllanib boradi. Ayniqsa, ustoz xonandalar ijro etgan qo'shiq va ashulalarni, ommaviy xalq qo'shiqlari, suvoralar, "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarni, "Yusuf va Ahmad" qissasini, "Bozorgon", "Sayodxon va Hamro", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlarni tez orada o'zlashtirib ijro etadi. Komiljonning xalq orasida ko'zga ko'rinishiga ham Bola baxshidan o'rgangan "Yetti yilga ketgan yorim", "Dushimda bir bulbul ko'rdim", "Ra'noni ko'rdim", "Namasan", "Ustozingdan ayrilma" kabi doston parchalari alohida ahamiyat kasb etdi.

Komiljon Otaniyozov 1935-yili Bo'yrachiga o'qituvchi qilib yuboriladi va oz muddat maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. 1936-yili Komiljonning jozibali ijrosini inobatga olib san'atkorlar truppasiga chaqirishadi. U 30 kishilik truppada spektakllarda o'ynashni boshlaydi. 1936-1940-yillarda Shovot tumani teatrida xonanda va rejissor bo'lib ishlaydi.

1940-yili Gurlanda Xorazm doston yo'llarining bilimdoni Sheroziy Yoqubovdan ta'lim oldi. Xorazm dostonlari borasidagi bilimni ustozning nazorati ostida mustahkamlaydi. Ijrochilik sirlarini va uning badihaviy talqinlarini o'zlashtirishga harakat qiladi. So'ng Xivaga qaytadi. Komiljon o'zining jozibali ijrosi bilan xalq orasida san'atkor sifatida endi tanila boshlagan davr edi. U, asosan, dutorda qo'shiq aytar va ijro etgan asarlarini maromiga yetkazib, tinglovchining qalbiga o't solib ijro etardi.

1941–1943-yillarda u Xivadagi kolxoz-sovхоз teatrida ishlaydi. 1943-yildan Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatrida aktyor va xonanda sifatida ishlay boshlaydi va davrining atoqli san'atkorlari bilan birgalikda 1951-yilgacha ijod qiladi. 1949-yili uning faol tashabbusi bilan Xorazm viloyat teatri qoshida 50 kishidan iborat ansambl tuziladi. Komiljon Otaniyozov ijro repertuarini turli namunalar va janrlar bilan boyitdi. Eng muhimi, xalq dostonlari asosida turli musiqiy namunalar yaratib, qayta ishlab yangitdan zamonaviy ijrolarni kashf etishga muvassar bo'ladi. Bu uning bastakorlikdagi ijodining boshlanish davri edi.

Mohir xonanda teatrdan nafaqat xonanda, balki turli spektakllarda ham obrazlar yarata boshlaydi. Jumladan, S. Abdulla, T. Jalilovlarning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasida Tohir va Parfi hofiz obrazini; "Oshiq G'arib va Shohsanam" spektaklida G'arib; Xurshid, V. Uspenskiy, G. Mushellarning "Farhod va Shirin" musiqali dramasida Farhod obrazlarini yaratadi.

1951-yili u san'atdagi safdoshlari Matniyoz Yusupov va Abdusharif Otajonovlar bilan birgalikda Toshkentga kelib, Toshkent musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. U 1955-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kirgan va bir yil davomida tahsil olgan.

1956–1975-yillarda O'zbekiston davlat filarmoniyasida yakkaxon xonanda va jamoa rahbari sifatida samarali faoliyat olib boradi. 1958–1959-yillarda filarmoniya qoshidagi Xorazm xalq ashula va raqs ansamblining rahbari vazifasida ishlaydi. 1967-yili Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz viloyat teatrida xalq ansamblini, 1973–1974-yillarda Xorazm viloyat Shovot tumanida "Feruz" ansamblini tashkil qiladi va boshqaradi.

* Aynan mana shu davrdagi faoliyati uning Xorazm qo'shiq ijrochilik san'atida yangi yo'nalishning shakllanishiga sabab bo'ldi. U ijro etayotgan

doston namunalarini, xalq qo'shiqlarini davr talabiga mos holda talqin etishga harakat qilardi. O'z. ijodiyotini xalq ijodiyoti bilan uyg'unlashtirish yo'lida ko'p izlandi. Bu bilan uning xalq qo'shiq ijrochiligidagi o'zgacha badihaviylik jihatlari ko'rina boshlaydi. Bu Komiljon Otaniyozovning ijodiga xarakterli xususiyatlarning shakllanishi edi. Uning negizida san'atkorona yondashuvlar, musiqiy namunalar, ya'ni davradagi muloqot asosida mukammallashtirib jonlantirib ijro etish yotadi. Bu esa, xalq musiqa merosiga ijodkorona yondashish va xalq bastakorligining namoyon etilishidir.

Musiqa san'atining eng go'zal an'analaridan biri bo'lgan bastakorlik, xalqimizning ma'naviyatini, ruhiyatini seza oladigan, uning tub negizidagi ma'nolarni anglagan, bilimli ijodkorlargagina nasib etadi. Chunonchi, musiqiy namuna – bu xalq hayoti, qalbi, istagi, orzusi va qiyofasidir. Uni ijodkor o'z asarlarida in'ikos etsa, xalq uni tinglaganda o'zini ko'radi va unga mehr qo'yadi, shubhasiz intiladi, unga ergashadi va hayotining mazmunmezoniga uyg'unlashtiradi. Komiljon Otaniyozovning ijodida ilk davridan boshlab ana shunday xislatlar o'rin olganligini ko'rish mumkin. Bu jihatlar uning bastakorlik ijodida yuzaga kelgan ilk asarlarining o'zida, ya'ni "Naylayin", "Na bo'ldi, yorim kelmadi", "Ayrilmasin nigoridan", "Otlan", "Xush qol endi", "Og'ang kelar mard bo'lib", "Xayr endi" kabi qo'shiqlarda namoyon bo'ladi. Bunga uning ustozlari Xorazm musiqa san'atining mohir san'atkorlari Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev va Bola baxshi kabilar bilan birgalikdagi faoliyati sabab bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, ustozlar rahnamoligi, birinchidan– ijodkorning tafakkurida an'ananing zamona bilan uyg'unlikda qaror topishidagi zamin bo'lsa, ikkinchidan–davr ma'naviyati va ruhiyatiga mos yangi asarlarning vujudga kelishini ta'minlab beradi. Komiljon Otaniyozov Xorazm dostonchilik san'atini oshiqona o'zlashtirgan san'atkor sifatida bu xislatlar uning asarlarida namoyon bo'la boshlaydi. Dostonlar ta'sirida u "Kel, yor, o'ylanma-o'ylanma", "Guldasta", "Ishqing o'tida devona bo'ldim", "Kerakmas" kabi musiqiy namunalarni ijro etadi. Bu asarlar Komiljon Otaniyozovning ijrochiligiga xos uslubning shakllanishidan darak edi.

Komiljon Otaniyozov Xorazm vohasining so'nmas ohanglari mujassam etilgan suvoralarni davrining ulkan san'atkori Hojixon Boltayevdan o'rganadi. Suvoralarning asl mohiyati, ohang jozibasi,

ularning ijrodagi sir-u sinoatlarini ustoz yordamida egallaydi. "Yakparda Suvora", "Xushparda suvora", "Kajhang Suvora", "Chapandozi Suvora"larning ulardan keyin davom ettiriladigan savtlari bilan mukammallik jihatlarini ustoz yordamida o'zlashtiradi. Ijrochilik an'alarini o'zining betakror uslubi bilan boyitadi. Xorazm ijrochilik uslubining butun respublika vohalarida keng ommalashishiga katta hissasini qo'shadi. O'zining suvoraxonlik amaliyotining yuqori cho'qqisiga yetgan pallasida Xorazm suvoralariga bo'lgan ijodiy munosabati namoyon bo'ladi. U suvora ijodiyoti an'alarini davom ettirgan holda, ustozlar sabog'ini mukammal o'zlashtirib, o'zining ijro uslubiga xos qilib bir namuna, ya'ni o'z "Suvora"sini yaratadi. Ijrochilik amaliyotiga bu asar "Suvorayi Komil" nomi bilan kirib keldi va xalqimiz orasida keng tarqaldi. Pirovardida, musiqa merosidan va ijrochilik an'alaridan munosib o'rin egalladi.

Xorazm maqomlariga bo'lgan munosabati esa Komiljon Otaniyozov ijodining yana bir qirralaridan hisoblanadi. Zero, bu jarayon ustoz san'atkorning ijodiy faoliyatini mustahkamlashga muyassar bo'lgan. Xorazm maqomlarining bilimdoni, o'z davrining zabardast san'atkori Matpano ota Xudoyberganov Komiljon Otaniyozovning Xorazm maqomlarini anglashida vaijrochilik an'analari hamda merosini o'zlashtirishida rahnamolik qiladi. Ustozidan tez orada "Navo", "Segoh", "Rost", "Dugoh" kabi Xorazm maqomlarining nazariy, amaliy va ijroviy jihatlarini mohirlik bilan o'zlashtirib oladi. Ustozlar Hojixon Boltayev va Madrahim Sheroziylar bilan birgalikdagi ijrochilik faoliyatlari davomida maqomlarni yanada yuksak darajada ijro etish yo'llarini o'zlashtiradi. Ayniqsa, Xorazm maqomlaridagi "Dugoh" maqomini o'ziga xos ohanglarda ijro etib ustozlar nazariga tushadi.

Komiljon Otaniyozov o'z ijrochilik faoliyatida yurtimizning boshqa vohalariga mansub ijrochilik an'alariga ham sadoqatli munosabatda bo'lgan san'atkordir. U Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktablarida dong taratgan ustoz san'atkorlar bilan yaqindan munosabatda bo'lganligini e'tirof etish lozimdir. Ayniqsa, Mulla To'ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va Akbar qori Haydarov kabi ustoz hofizlarning ijodiga bo'lgan munosabati va ulardan olgan ijodiy saboqlari Komiljon Otaniyozovga o'z ta'sirini namoyon etadi. Ustozning

ijrochilik uslubi Farg'ona – Toshkent musiqa an'analariga xos xususiyatlar bilan boyidi.

Komiljon Otaniyozov musiqa ijodkorligi sohasida 100 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratdi. Turli mavzularga bag'ishlangan uning bastakorlik mahsuli juda keng va rang-barangdir. U o'zining faoliyatida mumtoz shoirlar ijodiga bo'lgan munosabati beqiyos edi. Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Navoiy, Ogahiy, Mashrab, Fuzuliy she'r va g'azallari, Maxtumquli, Kamina va Mullanafasning hikmatlariga bastalagan qo'shiqlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning zaminida she'riyatga bo'lgan iste'dodini namoyon etadi va albatta, e'tiborga loyqlik tomonlari ham mavjud. Komiljon Otaniyozoʻv avvaliga "Komiy", keyinchalik "Komil" taxallusida bir qator she'rlar bitadi.

Komiljon Otaniyozovning ijrochilikdagi mohirligi, so'z tanlashdagi zukkoligi, ijro repertuarining rang-barangligi, xalq qo'shiq va dostonlarga munosabatlari hamda ulardan yangi asarlar yaratish qobiliyatining o'tkirligi, doston ijrochiligida novatorligi, maqomlar ijrosida o'zining bilimdonligini namoyish etishi va xalqqa yaqin holda talqin etishi, xalqimizga ko'pdan ko'p qo'shiq va ashulalarni yaratib meros qilib qoldirgani, o'zbek musiqa ijrochiligida o'zining go'zal uslubini yaratib qoldirgani, barcha-barchasi Komiljon Otaniyozovning ijodi yoshlar uchun ibrat deyishga asos bo'ladi.

Otaniyozovning qator asarlari xalq ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan. Barcha voila xonandalarining repertuaridan joy olishi bilan birga, yoshlarning qiziqib o'rganadigan asarlari qatoridan o'rin olgan.

Nurilla Zokirov - Nurilla Zokirov zamonaviy professional kompozitor bo'lib shakllanishda u an'anaviy o'zbek xalq musiqa merosini o'zlashtirish bilan birga Yevropada dunyoga kelgan ko'p ovoqli musiqa yozma mehanikasini, shakl, janr va kompozitsiya, uslub qonun-qoidalarini o'rganishda mashaqqatli ilm yo'lini bosib o'tgan. Respublikamiz musiqiy san'atiga qadam qo'ygan kompozitor N.Zokirov o'zining ijodiy uslubini topib olishda tinmay ijod qildi.

Nurilla Abdullayevich Zokirov Toshkent shahrida ishchi oilasida 1942-yilning 2-mayida tug'ildi. U 1961-yili R.Glier nomidagi maxsus musiqa maktabi nternafini changchi E.Toshmatov sinfi bo'yicha bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasi professori N.M.Yablonovskiyning

fortepiano sinfida taxsil ko'ra boshlaydi. 1962-yilning o'quv yilidan boshlab professor B.I.Zeydmen sinfida kompozitorlik mutaxassisligida saboq oldi. U fortepianoda 4-kursda butunlay kompozitorlikka o'tadi. 1967-yili 4 qismli sinfoniya bilan konservatoriyani bitirdi. N.Zokirov mehnat faoliyatini konservatoriyada o'qib yurgan yillaridan boshlagan. 1963-1964-yillarda Chirchiq shahar bolalar musiqa maktabida, 1964-1967-yillari Hamza nomidagi Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida, 1967-1971-yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1971-1977-yillari Hamza nomidagi musiqa bilim yurtining Musiqa nazariyasi bo'limini boshqardi. 1977-1982-yillari O'zbekiston kompozitorlar uyushmasining hay'at raisi o'rinbosari vazifasida ishladi. 1982-1984-yillari faqat ijod bilan shug'ullandi. 1984-1987-yillari Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining direktori lavozimida ishladi. 1987-1990-yillarida faqat ijod bilan shug'ullandi. 1990-1993-yillari O'zbekiston teleradio qoshidagi badiiy ijrochi jamoalarining direktori bo'lib ishladi. 1995-yildan umrining ohirigacha ijodiy ish bilan shug'ullandi.

Navoiy g'azaliga bastalangan "Istadim" nomli vokal-simfonik poemasini 1968-yili musiqa ahli iliq kutib oldi va ijrochilar repertuaridan munosib o'rin oldi. "Mening O'zbekistonim" nomli (E.Oxunova so'zi) vokal-simfonik poema 1971-yili; "Muhabbat qo'shig'i" nomli (U.Umarov so'zi) vokal-simfonik poema 1971-yili; A.Oripov so'zi bilan ikkinchi sinfoniya 1971-yili; Kamer orkestri uchun "Konsert" 1977-yili; orkestr uchun "Simfoniya №3" 1981-yili; skripka va simfonik orkestr uchun "Konsert" 1984-yili; simfonik orkestr uchun "Konsert" 1989-yil; to'rtinchi sinfoniya va A.Oripov so'ziga "Munojot" nomli vokal-simfonik poema 1996-yil; 3 simfonik poema 1992-1994-yillrda yaratdi.

Kamer-cholg'u asarlaridan 2 ta torlik kvartet; 7 ta fortepiano uchun sonata; skripka va fortepiano uchun sonata-improvizatsiya; violonchel uchun solo sonata- improvizatsiya; fagot va fortepiano uchun sonata; fortepiano uchun pyesalar, violonchel uchun pyesalar; skripka ansambli uchun "Skertso"; chang uchun konsert-fantaziya; chang ansambli uchun "Tantana" pyesalar va boshqalar.

N.Zokirov; M.Boyjiyev pyesasi asosida E.Ohunova yozgan librettoga 1972-yili "Sohilda to'qnashuv" nomli opera-munozara kompozitorning ijodida va Respublikamiz musiqiy hayotida katta voqea bo'ldi.

Mirsodiq Tojiyev - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, dotsent, kompozitor Tojiyev Mirsodiq Mahmudovich XX asro'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o'z musiqiy ovozi bilan 70-yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga kirib keldi. Davr va zamonaviy professional o'zbek musiqiy san'ati oldidagi yuksak ijodiy maqsadlarini chuqur anglagan holda rang-barang simfonik asarlar yaratib, tez orada el-yurtga tanildi. Milliy simfoniyaning yuzaga chiqarish jarayoni rivojlanib borayotgan bir davrda



M.Tojiyev yaratgan simfoniyalarni uning katta tarixiy yutug'i bo'lib, bu bilan o'zbek simfonizmining rivojlanish ufqlarini yanada yoritib berdi.

Tojiyev Mirsodiq Mahmudovich 1944-yilning 25-martida Toshkentning Yunusobod dahasida dehqon oilasida tug'ildi. Mirsodiq bolaligidan musiqaga qiziqdi, u 1950-yil o'rta umum-ta'lim maktabida o'qidi. Maktabda tashkil etilgan sozandalar ansamblida mashhur dutorchi va murabbiy Abdusamat Ilyosovdan chang chalishni o'rgandi. Undagi musiqiy san'atga bo'lgan mehrni va qobiliyatni sezgan ustoz musiqa bilim yurtida o'qishni maslahat berdi. Mirsodiq 1960-yili o'rta maktabni bitirib, Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining musiqa nazariyasi bo'limiga o'qishga kirdi. U 1961-62-o'quv yillari kompozitor Albert Malahovdan va 1962-65-yillarda Rumil Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1965-yili uch qismli torli kvartet; fortepiano uchun variatsiya, fortepiano va simfonik orkestr uchun diplom ishlari bilan o'qishni bitirib, Toshkent davlat Konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kiradi. Mazkur oliy dargohda kompozitorlik mutaxassisligidan avval R.Vildanov, 1969-yildan esa F.Yanov-Yanovskiy sinfida o'qidi. Mirsodiq 1969-yilda yosh kompozitorlarning tanlovida qatnashdi va "Shoir muhabbati" simfonik poemasi uchun Diplomga sazovor bo'ldi.

1970-yili M.Tojiyev Davlat imtihon komissiyasiga H.Olimjonning "Oygul va Bahtiyor" dostoni asosida 2-simfoniya baletini diplom ishi sifatida taqdim etdi. U musiqa bilim yurtida va konservatoriyada o'qib yurgan

1962-67-yillari bolalar musiqa maktabida, 1964-70-yillarda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasi fanidan dars berdi. 1971 yilda harbiy xizmatdan qaytgach, 1972-74-yillarda konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasida dars berdi. 1973-79-yillarda u M.Qoriyoqubov nomidagi O'zbek Davlat filarmoniyasining "Go'zal", "Shodlik" ansambllarida, keyinchalik filarmoniya badiiy rahbari lavozimlarida ishladi. 1979-yildan to umrining oxirigacha konservatoriyaning bastakorlik kafedrasida mutaxassislik fanlarining katta o'qituvchisi, dotsent lavozimlarida ishladi. Konservatoriyasidagi muallimlik ishlari bilan bir vaqtda 1982-85-yillarda O'zbekiston Bastakorlik uyushmasi hay'ati kotibi, 1985-87-yillarda birinchi kotib vazifalarida ishladi.

M.Tojiyev o'qituvchilik, rahbarlik va jamoat ishlari bilan band bo'lishiga qaramasdan barakali ijod qilib, musiqa san'atining turli janrlarida bir qator asarlar yaratdi. U o'zbek musiqa merosini o'zlashtirish bilan birga, klassik va zamondosh, o'zbek va chet el kompozitorlarining ijodini o'rganib, ularning ta'siri ostida o'sdi. XX asr buyuk kompozitorlari S.Prokofev, A.Xachaturyanlarningi jodiga yondashdi va o'rnak oldi. Ayniqsa, u D.Shestakovichning simfonik asarlari ta'sirida milliy simfonik asarlar yaratishga harakat qildi. Bu jarayonni yillar davomida, u talabalik davrida yaratgan birinchi simfoniyaasidan tortib to oxirgi 19-simfoniyaasiga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'li kamolotga erishish yo'li, desa ham bo'ladi. Chunki musiqa san'atining boshqa janrlarida asarlar yozishiga qaramay, milliy simfoniyaalar yaratish M.Tojiyevning ijodiy faoliyatida bosh vazifa bo'lib qoldi. Uning 19 simfoniyaasi mazmun ila talqini bo'yicha xilma-xildir. Unda muallifning shaxsiy dunyo qarashi bilan mushtarak umum insoniy tuyg'ulargacha o'z ifodasini topgan. Simfoniyaalarning ayrimlari asar lavha orqali, qisqacha dastur yoki mavzu nomi berilgan. Masalan: 2-simfoniya-balet "Oygul va Baxtiyor" (1970 y.); 4-simfoniya "Otam xotirasi" deb ataladi (1975 y.). Simfoniyaada urush fojiasi, dahshatli sinovlardan g'olibona o'tgan xalqlarning jasorati aks etgan. 5-simfoniya mashhur dirjior, O'zbekiston xalq artisti, professor Zohid Haqnazarovga bag'ishlangan (1976y.); 1991 va 1992-yillarda 15,16,17-chi "Somon yo'li" nomli simfoniya-trilogiya; 1-"Arxipelag Gulag", 2-"Ruhlar nidosi", 3-"Somon yo'li" deb ataladi. 1995-yilda oxirgi 19-"Qahramonlik" simfoniyaasi, Vatanimiz istiqloliga bag'ishlangan.

Simfoniyalardan: №7, 8, 12 va 18 (1978, 1983, 1993-yillar) kamer simfonik orkestr uchun yozilgan.


M.Tojiyev yillar davomida kamer-cholg'u musiqa bastalashda ham samarali ijod qildi: ikkita prelyudiya, sonatina, syuita, violonchel va fortepiano uchun "Elegiya", fleyta va fortepiano uchun "Qo'shiq", truba va fortepiano uchun sonatina, torli kavrte, "Fortepiano triolsi" va boshqalar. Uning qalami ostidan quyidagi asarlar ham chiqdi: 1972-yil "Go'zal" ansamblga "Shodiyona" uvertyurasi, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun uchta uvertyura, konsertino fortepiano bilan (1976-y.), 1979-91-yillarda chang uchun 10 ta Sharqona rapsodiyalari, akapella xori uchun "Yor-yora" (S.Karimov so'zi, 1974 y.), "Biz O'zbekisfondan" (G.G'ulom so'zi, 1974 y.) vokal-xoreografik syuitasi, 1977-yil "O'zbekiston" (B.Boyqobilov so'zi), yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun qasida, xor va simfonik orkestr uchun: "Do'stlik" (1981 y.), "Paxtakor" (1982 y.), Romanslar: "Ayriliq shomida" (Uyg'un so'zi), Uyg'un so'zlariga ikkita turkum qo'shiqlar, "Bakeniakik" kino musiqasi, Respublika bolalar teatri uchun "Maugli" spektakliga musiqa bastaladi. 1978-yili Muqumiy nomidagi musiqali teatrdan "Chollar va kampirlar" (H.Sharipov Pyesasi), buyurtma asosida 1973-yili Samarqand shahrining 2500-yillik yubileyiga atab Registon maydonida o'rnatilgan nurli tovushli panoramaga "Ko'xna Samarqadning yuragi" nomli rejissyor O. Uzoqov bilan hamkorlikda maxsus musiqa yozgan.

M.Tojiyevning 3-simfoniya 1973-yil Olmaota shahrida o'tgan Osiyo mamlakatlari xalqaro musiqa minbari anjumanida, Moskva, Sank-Peterburg va Bolgariya'da ijro etildi va 1974-yil Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor bo'ldi. 4-simfoniya Moskva, Chexoslovakiya'da ijro etilgan, Butun ittifoq yoshlar tashkiloti mukofotiga sazovor bo'lgan. 5-simfoniya Yugoslaviya'da, 8- Avstriya, Moskvada ijro etilgan

O'zgancha

Shoshilmasdan

O'zbek xalq kuyi



Qashqarcha

Tez

O'zbek xalq kuyi



Do'loncha

Tez 13 1 3 1 3 1 13 1 4 24211 1 4 2124 O'zbek xalq kuyi



Farg'onacha

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi

Seven staves of music in 2/4 time. The first staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The melody is written in eighth and sixteenth notes. Above the first staff, the tempo 'O'rtacha tez' and a sequence of rhythmic numbers '1 2 3 1 3 1 2 1 2' are written. The second staff continues the melody, with dynamic markings *mf* and *p* placed below it. Fingering numbers (1, 2, 3, 4) are written above the notes. The third staff has a dynamic marking *p* and a hairpin. The fourth staff has a dynamic marking *p* and a hairpin. The fifth staff has a dynamic marking *p* and a hairpin. The sixth staff has a dynamic marking *p* and a hairpin. The seventh staff has a dynamic marking *f* and a hairpin.



Norim norim

O'zbek xalq kuyi

Allegretto







Rohat

Tezroq, yengil

O'zbek xalq kuyi








Saboh

O'zbek xalq kuyi

Shoshilmasdan





Dutor bayoti

O'zbek xalq kuyi

Yengil



Gulbahor

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi





Tanovor

O'rtacha tez

O'zbek xal kuyi

Aliqambar

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez

1 2 3 3 1 2




mf

1 2 3 2 1 1 1 2 4 3 1 1 1 2 3 1 1 2 1 3 1 3 1 2 2

1 3 4 1 4 2 1 1

p

f *p*





Oromijon

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi


The musical score for 'Oromijon' is written in a key signature of two sharps (F# and C#) and a 2/4 time signature. It consists of eight staves. The first staff has a treble clef. The second staff has a bass clef. The third staff has a treble clef. The fourth staff has a bass clef. The fifth staff has a treble clef. The sixth staff has a bass clef. The seventh staff has a treble clef. The eighth staff has a bass clef. The score includes various musical notations such as notes, rests, accidentals, and dynamic markings like 'mf' and 'f'. There are also fingerings indicated by numbers 1, 2, 3, 4.

This page contains ten staves of musical notation in D major (two sharps). The notation includes various rhythmic patterns, primarily eighth and sixteenth notes, often beamed together. Fingerings (1, 2) and breath marks (†) are indicated throughout. Dynamics such as *f* (forte) and *mf* (mezzo-forte) are used to indicate volume. The piece concludes with a final cadence on the tenth staff.

Sharob

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez



Nasri Segoh

O'zbek xalq kuyi

Shoshilmasdan



Musical notation for a piano piece, featuring ten staves of music in G major. The notation includes various musical symbols such as treble clefs, key signatures, time signatures, and dynamic markings like *mp*, *mf*, and *f*. Fingerings are indicated by numbers 1-4 above notes. The music consists of a single melodic line with some rests and a final fermata.



Rajabiy

O'zbek xalq kuyi







Samoi Dugoh

Shoshilmasdan

O'zbek xalq kuyi
H. Nurmatov qashqar
rubobiga moslagan





Mirzadavlat

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez





Beksulton

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez





Cho'li Iroq



O'zbek mumtoz kuyi.

A. Ismoilov ijrosidan Murod Toshmuxamedov notaga tushirgan

$\text{♩} = 92-96$













Munojot

Vazmin ta'sirchan

O'zbek xalq kuyi
H. Nurmatov qashqar
rubobiga moslagan

mf

f




Garduni Dugoh

R.Qosimov rubob uchun moslagan

Moderato





Mushkiloti dugoh


O'zbek xalq kuyi

Shoshilmasdan



This page contains ten staves of musical notation in D major (two sharps). The notation includes various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. Fingerings are indicated by numbers 1, 2, and 3. Dynamics include *mf* (mezzo-forte) and *f* (forte).

The first staff begins with a treble clef and a key signature of two sharps. The music features a mix of eighth and sixteenth notes, with some measures containing rests. The second staff includes a double bar line and a key signature change to D major. The third staff continues the melodic line with various rhythmic patterns. The fourth staff features a key signature change to D major and a double bar line. The fifth staff includes a key signature change to D major and a double bar line. The sixth staff features a key signature change to D major and a double bar line. The seventh staff includes a key signature change to D major and a double bar line. The eighth staff features a key signature change to D major and a double bar line. The ninth staff includes a key signature change to D major and a double bar line. The tenth staff features a key signature change to D major and a double bar line.



Xafifi Segoh

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez





Soyaiy

O'zbek xalq kuyi
H.Nurmatov qashqar
rubobiga moslagan

Shoshilmasdan

mf

1

2

1

1

f

1

1

f


1




Navrozi Ajam

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi








Yangi tanovar

M.Mirzayev musiqasi

Allegro






Tanavor I

O'zbek xalq kuyi

Vazmin





Tanavor II

O'zbek xalq kuyi

Vazmin





Turkman eshvoyi

O'zbek xalq kuyi

Yengil




Musical score in treble clef, key of D major (one sharp). The score consists of 12 staves of music. The notation includes eighth and sixteenth notes, rests, and dynamic markings. Dynamics include *mf* (mezzo-forte), *p* (piano), and *sf* (sforzando). There are also crescendo and decrescendo hairpins. The piece ends with a final cadence on the 12th staff.



Rost Panjgoh Qashqarcha

O'zbek xalq kuyi

Yengil





Usmoniya

Marsh sur'atida

O'zbek xalq kuyi








Ajam II

S.Usmanov qashqar rubobiga moslagan


O'rtacha tez, shoshilmay



Ajam III

S.Usmanov qashqar rubobiga moslagan

O'rtacha tez shoshilmay





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni//Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi pedagogik ta'lim konseptsiyasi. – Toshkent: O'zR XTB, O'zPFITI, 1995
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "Ozbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori//Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – 18 noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmoni. 1995 yil 20 oktabr//O'zbekiston ovozi. – Toshkent, 1995. – 21 oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – 6-son. – 7-modda.
7. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz//Asarlar. – 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMU, 2017.
9. Sh.Rahimov, A.Lutfullayev "Cholg'ushunoslik" T. 2010y.
10. A.I.Petrosyans. Instrumentovedeniye "Uzbekskiy narodniy instrumenti". T.1951y.
11. T.Vizgo, A.Petrosyans. "Uzbekskiy orkestr narodnix instrumentov". T.1962y.
12. A.X.Liviyev. "Rubob orkestri tashkil qilish metodikasi". T.1978y.
13. A.X.Liviyev. "O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlari".T.1971y.
14. H.Nurmatov. "Qashqar rubobi".T.2003y.
15. Z.Turapov. "Dutor bas". T.2004y.
16. I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" T. 1963y.

17. Вызго Т. "Музыкальные инструменты" Средней Азии.

18. Ф.Караматов "Узбекская инструментальная музыка".Т.
Издательство им. Г. Гуляма 1972.

18. www.Ziyo.net

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Musiqiy tovushlar bilan tanishuv.....	5
ANSAMBL CHOLG'ULARI VA ULARNING UMUMIY TAVSIFI YOG'OCH DAMLI CHOLG'ULAR NAY.....	11
TORLI-URMA CHOLG'ULAR.....	15
MEZROBLI CHOLG'ULAR.....	17
URMA ZARBLI CHOLG'ULAR.....	27
TORLI KAMONLI CHOLG'ULAR.....	31
MILLIY MUSIQAMIZGA HISSASINI QO'SHGAN USTOZSAN'ATKORLAR.....	33
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:.....	124

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
Знакомство с музыкальными звуками	5
АНСАМБЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ИХ ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ	
ДЕРЕВЯННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ Флейта	11
СТРУННЫЕ УДАРНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ	15
МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ	17
УДАРНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ	27
СТРУННЫЕ СМЫКОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ	31
ИСПОЛНИТЕЛИ, Внесшие вклад в НАШУ НАЦИОНАЛЬНУЮ	
МУЗЫКУ	33
ЛИТЕРАТУРА:	125

CONTENTS

INTRODUCTION	3
Familiarity with musical sounds	5
ENSEMBLE INSTRUMENTS AND THEIR GENERAL DESCRIPTION	
WOODEN INSTRUMENTS Flute	11
STRINGED PERCUSSION INSTRUMENTS	15
MUSIC INSTRUMENTS	17
PERCUSSION INSTRUMENTS	27
STRINGED BOW INSTRUMENTS	31
ARTISTS WHO CONTRIBUTED TO OUR NATIONAL MUSIC	33
REFERENCES:	125

ISBN 978-9910-756-48-1



9 789910 756481